

GOLDEN BRAIN

Scientific Journal

ISSN: 2181-4120



Volume 1, Issue 8



Google
Scholar



zenodo

2023/8
March

ISSN 2181-4120
VOLUME 1, ISSUE 8
MARCH 2023



<https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/issue/view/66>

“GOLDEN BRAIN” SCIENTIFIC JOURNAL

VOLUME 1, ISSUE 8, MARCH, 2023

EDITORIAL BOARD

G. Kholmurodova

Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

A. Madaliev

Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University

G. Sotiboldieva

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Rashidova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University

D. Darmonov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

X. Abduxakimova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Ruzmetov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan

M. Yusupova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

M. Kambarov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University

S. Sadaddinova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies

M. Fayzullaev

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University

Z. Muminova

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

B. Kuldashov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

Kh. Askarov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute

S. Nazarova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University

O. Rahmonov

Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute

G. Tangirova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

Z. Koryogdiev

Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University

S. Ubaydullaev

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology

R. Yuldasheva

Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

M. Yuldashova

Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University

EDITOR-IN-CHIEF: M.YUSUPOV

ANDIJON VILOYATINING SUV RESURSLARI

Akmalova Feruzaxon Furqat qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti

Xojimurodov Rustambek Ulug'bek o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

Axmadov Qosimjon Furqat o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Andijonning daryolari, soylari, kanallari hamda mamlakatimizning suv manbalari kabi tabiiy boyliklar bo'yicha ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, iqlimi quruq, sug'orma dehqonchilikka asoslangan o'lkamiz uchun daryolarning sug'orishdagi ahamiyati naqadar kattaligi haqida ilmiy ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *Andijon viloyati, suv ombori, yog'in mavsumi, suvdan foydalanish, namlik koeffitsiyenti, daryolarning to'yinishi, yaxob suvining ahamiyati*

АННОТАЦИЯ

В данной статье приведены сведения о природных богатствах Андижана, таких как реки, ручьи, каналы и водные источники нашей страны, а также научная информация о значении рек в орошении для нашей страны, имеющей сухой климат и на основе орошаемого земледелия информация предоставлена.

Ключевые слова: *Андижанская область, водохранилище, сезон дождей, водопользование, коэффициент влажности, насыщенность рек, значение речной воды.*

ANNOTATION

This article provides information on the natural resources of Andijan, such as rivers, streams, canals, and water sources of our country. Also, scientific information about the importance of rivers in irrigation for our country, which has a dry climate and is based on irrigated agriculture. information has been provided.

Key words: *Andijan region, water reservoir, rainy season, water use, moisture coefficient, saturation of rivers, importance of river water*

Kirish

Daryolarning ahamiyati va suvni toza saqlash.

Andijon viloyati hududidan oqib o'tadigan suv havzalari, jumladan, daryolar, soylar, kanallar, anhorlar va ariqlar viloyatimiz qishloq xo'jaligida foydalaniladigan, sug'orib dehqonchilik qiladigan yerlarni sug'orishda, yuzlab sanoat korxonalarini suv bilan ta'minlashda, shahar va qishloqlarimizdagi ijtimoiy sohalarni hamda viloyatning 2854,3 ming kishi aholisining suvga bo'lgan ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyatga egadir.

Viloyatda jami 430,5 ming gektar yer qishloq xo'jaligi tarmoqlarida band bo'lib, shundan 272,4 ming gektar maydonda sug'orib dehqonchilik qiladi. Bu maydonlarni sug'orish uchun jami 158,4 mln.m³ suv sarflanadi. Qishloq xo'jaligi uchun olinayotgan suvning 80% sug'orish uchun sarflansa, qolgan 20% tuproq sho'rini yuvishga ishlatiladi. Viloyatning Ulug'nor, Bo'z hamda Baliqchi tumanlarida sho'r va sho'rxok tuproqlar mavjud bo'lib, bu tuproqlarni yaxob suvi berish orqali sho'rlarini yuvib, undan so'ng ekin ekiladi. Sug'orishga sarflanayotgan suvning 20-25 % zovur drenaj orqali tabiiy holda sizib qaytarma suvlar sifatida zaharli kimyoviy moddalar va mineral o'g'itlar bilan ifloslanib, tabiiy havzalarga qo'shiladi yoki sug'oriladigan hududlardan tashqariga chiqarib tashlanadi.

Viloyatimizda mavjud daryo va kanallar sanoat tarmoqlarini va maishiy-kommunal xo'jaligini suv bilan ta'minlaydi. Bu sohalarga daryo va kanallarni 2-2,5% suvi sarflanadi. Shu sarflangan suvning 85% ifloslangan yoki qisman tozalangan holda yana tabiiy o'zanlarga qo'shib ketadi.

Daryolarning energetik ahamiyati ham katta. Qoradaryoning Andijon suv omboridan chiqish joyida qurilgan gidroelektrostansiya viloyatning elektr energiyaga bo'lgan ehtiyojini ma'lum darajada qondiradi. Viloyatda bir yilda, jumladan, 2013 -

yilda, 569,8 mln kvv/soat elektr energiya ishlab chiqargan bo'lib, bu energiya asosan sanoat korxonalarini va aholini energiya bilan ta'minlashga sarflanadi.

Viloyatdan oqib o'tadigan daryolarning yana baliq ovlashda, rekreatsion maqsadlarda ham ahamiyati katta. Daryo suvlarida laqqa, oq amur, sazan kabi baliq turlari mavjud bo'lib, bu baliqlar sanoat ahamiyatiga ega bo'lmasa-da, ma'lum ma'noda, aholini baliq mahsulotlari bilan ta'minlaydi. Undan tashqari daryoda yashaydigan boshqa mavjudotlar ham suvning qayta tiklanishida o'zining ta'sirini ko'rsatadi. Yuqorida qayd qilinganidek, daryo trassalari va vodiylarida aholining dam olish maskanlari tashkil etilgan. Bu maskanlar o'zlarining mikroiklimi bilan jazirama yoz oylarida aholini dam olish va salomatliklarini tiklashga xizmat qiladi.

So'nggi vaqtlarda viloyatimizdagi sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida zovur – drenaj suvlari miqdorining ko'payishi, ishlab chiqarish korxonalaridan, maishiy tarmoqlaridan, transport va sog'lomlashtirish tashkilotlardan, ayniqsa, aholi xo'jaliklaridan chiqayotgan iflos-oqova suvlar miqdorining ortib ketishi, ularning daryo va kanallarga oqizilishi tufayli katta suv havzalari suvining tabiiy holati buzilib, ifloslanib bormoqda bu esa o'z navbatida suvdan foydalanish muammolarini keltirib chiqarmoqda.

Daryo suvlarining ifloslanishi oqibatida suvning tabiiy holati buzilib, yashil suv o'tlarining, baliqlarning va boshqa suvda yashaydigan jonivorlarning kamayib ketilishiga, sug'oriladigan yerlardagi ekinlarning yaxshi rivojlanishiga, ularning hosildorligiga va oqibatda kishilar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Daryolar, soylar, kanal va anhorlar ham hududning katta boyligi hisoblanadi. Shuning uchun bu suv havzalari suvlarini toza saqlash, ulardan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega. Suvni toza saqlash uchun eng avvalo ekin dalalaridan chiqayotgan zovur-drenaj suvlarini tabiiy suv havzalariga oqizmaslik, zovur-drenaj suvlarini ma'lum havzaga yig'ib, uni zararsizlantirib keyin toza suvlarga qo'shish maqsadga muvofiq.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini kimyoviy zaharlar bilan kamroq dorilab, qishloq xo'jaligi zararkunundalariga biologik usul bilan qarshi kurashishni joriy qilish hamda

zavod va fabrikalardan, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalaridan chiqayotgan iflos-oqova suvlarni suz tozalash qurilmalarida tozalab, undan so'ng suv havzalariga tashlashga erishish zarur.

Andijon viloyatida tabiiy ko'llar yo'q, ammo Ulug'nor tumani yangi Baliqchi qishlog'i hududida sun'iy ko'llar barpo qilingan bo'lib, bu ko'lning maqsadi baliqchilik sohasini rivojlantirishdan iborat. Ko'lda sazan, laqqa, oq amur, xon baliq, ilon bosh, marinka kabi baliq turlarini uchratish mumkin. U yerda baliqchilikni rivojlantirish bilan bir qatorda suv havzasida yashaydigan boshqa tirik organizmlarning hamda qushlarning makon topishi uchun sharoitlar yaratilgan bo'lib, havzadagi qamishzorlar orasida laylak, yovvoyi o'rdak va boshqa ko'pgina parandalar yashashi uchun tabiiy sharoit yaratilgan.

Andijon suv ombori Farg'ona vodiysining janubi-sharqida Oloy, shimoli-sharqida Farg'ona tog' tizmalarining 4500 metr balandliklaridan boshlanuvchi Qoshqa-suv, Tor, Qora-G'ulja, Qurshob daryolarining suvlarini o'zida to'playdi.

Andijon suv ombori Qoradaryo o'zanida qurilgan yirik gidrotexnika inshooti bo'lib ko'p yillik rejimda daryo suvini tartibga soladi, irrigatsiya va energetika maqsadlarida bunyod etilgan. Suv omborining qurilishi 1982-yilda nihoyasiga yetkazilgan bo'lib, uning balandligi 121 metr, uzunligi 1040 metrga teng bo'lgan betonli katta kontrforsli to'g'ondan iborat qurilma. Suv omborining suv sig'imi 1.9 mlrd m³ ni tashkil qiladi. Gidrouzel tarkibiga to'g'on, suv o'tkazuvchi inshootlar va GES kiradi. Suv omborida suv o'tkazuvchi inshootlar favqulodda toshqinda 1700 m³/s gacha suv o'tkazishga va umumiy suv sarfi 230 m³/s bo'lgan irrigatsiya kanallariga oqizish quvvatiga ega. GES kanallarga tushayotgan suv hisobiga ishlaydi, 192 m³s suv sarfiga mo'ljallangan, energiya ishlab chiqarish quvvati 140 MVt.ga teng. Andijon suv ombori suvi Farg'ona vodiysidagi 273 ming gektarga yaqin maydondagi ekinzorlarning suv ta'minotini yaxshilaydi, qo'shimcha 35 ming gektar yerni sug'orish imkoniyatini beradi.

1 Andijon suv omboridan Qoradaryo, Andijonsoy, Shahrixonsoy suv oladi va ular ham, o'z navbatida, bir nechta o'zanlarga bo'linib, Andijon viloyatining irrigatsiya turini tashkil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Mirziyoyev SH. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.*
2. *Ergashev A. Umumiy ekologiya. – Toshkent: O‘zbekiston, 2003.*
3. *To‘xtaev A. S. Ekologiya. - Toshkent: O‘qituvchi, 2001.*
4. *To‘xtaev A. S., Xamidov A. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. Toshkent: O‘qituvchi, 1964.*

GIBRID AXBORIY URUHLARNING MEDIA MAKONDAGI YANGICHA KO'RINISHI

Zulfizar Mamadaliyeva

O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy

Kommunikatsiyalar Universiteti, 2-bosqich magistr talabasi

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda dunyoning axboriy manzarasi turli mazmundagi to'g'ri va yolg'on xabarlar, xolis va noxolis axborot manbalari, mafkuralar o'rtasidagi kurashlar, ziddiyatlar bilan ifodalanmoqda. XXI asrda turli tushdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kirib kelishi, raqamli va robot texnologiyalarning jadal rivojlanishi tom ma'noda insoniyatga ko'plab qulay imkoniyatlarni yaratdi. Shu bilan bir qatorda inson anglab yetmaydigan yangi ko'rinishdagi tahdidlar hamda gibril axboriy urushning yangi usullarini yuzaga kelishiga turtki bo'ldi. Ushbu ilmiy maqolada, hozirgi kunda axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi milliy xavfsizlikning asosiy va ajralmas qismi ekanligi, axborotni muhofaza qilish shuningdek gibril tahdidlardan himoyalaniashda har bir davlatning birlamchi vazifasi ekanligi haqida bayon qiladi.

Kalit so'zlar: *gibril, gibril urush, 4-avlod urushlari ("4GW"), tashviqot, texnika, gibril tahdid, global terrorizm, kiber urush, terrorizm, dezinformatsiya*

So'nggi yillarda nafaqat harbiylar balki jurnalistlar, siyosatchilar, diplomatlar tomonidan gibril urush tushunchasi, uning yangi ko'rinishi sifatida 4-avlod urushlari ("4GW") tushunchalari keng qo'llanilib kelinmoqda. Ayni paytda, bu urush toifalari haqiqiy urush maydonlarida, davlatlar, ularga o'xshash tuzilmalar o'rtasida amaliy sinovdan o'tkazilayotgani guvohi bo'lmoqdamiz. Jahonda ommalashib borayotgan va media makonning tub ildizigacha egallab kelayotgan urushlardan biri gibril urushlar

hisoblanmoqda. “Gibrid” soʻziga toʻxtaladigan boʻlsak, odatda u va bu turkumlarning oʻzaro chatichidan hosil boʻlishi nisbatan shunday nomlanadi. Gibrid urush esa bu nafaqat harbiy texnika, balki siyosiy tashviqot, terrorizm, dezinformatsiya va dushmanga qarshi iqtisodiy bosim kuchlari tomonidan olib boriladigan zamonaviy urush turidir¹. Aslida olib qaralganda, gibrid urushlarni tashkil etishda AQSH, Rossiya, Xitoy va Gʻarbiy Yevropaning gegemon davlatlari yetakchilik qilishi, ularning har birida oʻz manfaati yoʻlida amalga oshirishi lozim boʻlgan strategiya, prinsipp shuningdek, maxfiy metodlari haqida ham keltirib oʻtilgan. Gibrid urushni, hozirgi davrda mavjud boʻlgan mamlakatlarning siyosiy harakatlar koʻrinishida, siyosatshunos P.A. Tsygankov quyidagicha taʼriflaydi: “AQSh va Gʻarbiy Yevropa davlatlarining tashqi siyosatining oʻzi gibriddir”.² Gibrid urushi dastlab qayerda va qay tarzda paydo boʻlgan savol beixtiyor tugʻiladi. Qadimgi Rimda gibrid taktika dastlab jinoiy toʻdalar, oddiy askarlar va tartibsiz jangchilar tomonidan Vespasianning Rim legionlariga qarshi miloddan avvalgi 66-yilda yahudiylarning qoʻzgʻoloni paytida ishlatilgan. “Ikkinchi Jahon urushi” davrida Sovet partizan harakati ham gibrid kuchdan foydalanishga misoldir. Gibrid urush tushunchasi birinchi boʻlib, XXI asrda AQSh va Buyuk Britaniyaning harbiy hujjatlarida paydo boʻldi, degan tushuncha ham yoʻq emas (manbalarda).³ Bu maʼlum bir hududni axborot, elektron, kibernetik operatsiyalar yordamida boʻysundirishni qurolli kuchlar, maxsus xizmatlarning harakatlari va kuchli iqtisodiy bosim bilan birlashtirishni anglatadi. Gibrid urushi harbiy atama sifatida birinchi marta 2007-yilda AQShda joriy etilgan. Maʼlumotlarga koʻra, “gibrid urushi” iborasi, internetning rusiyzabon segmentida 2009-yil 24-iyunda paydo boʻlgan va 2010-yilda bu haqda birinchi marta aytilgan ekan. Toʻgʻri, baʼzi manbalar “gibrid urush” atamasini birinchi marta 2006-yilda AQShning Mudofaa sharhlari tomonidan

¹ <https://uz.m.wikipedia.org>

² Bartosh A.A. “Axborot urushining adaptiv strategiyalari” - Moskva: Harbiy fanlar akademiyasining Axborotnomasi - № 2 va 3 – 2016.

³ Knyazeva L.G. XXI asrning gibrid urushlari: 2015 yil 29 yanvarda xalqaro universitetlararo davra suhbat materiallari, - M: VU, 2015, B.3

ishlatilganligini ko'rsatayotgan bo'lsada, lekin gibril urushi asrlar oxiridagi hodisa sifatida ham e'tirof etiladi. Umuman olganda, gibril urush tushunchasining dastlabki ta'rifi Ukraina sharqidagi Muskovining zamonaviy davlat rejimini ochib bergan harbiy harakatlarning hajmini tavsiflagan va shundan paydo bo'lgan degan fikr bor. Ularning e'tirof etichicha, gibril urushga odatiy kuchlar tomonidan joylashtirilgan yanada rivojlangan qurol va tizimlarga kirish huquqiga ega bo'lgan tartibsiz kuchlar yordam berishi mumkin ekan.

Siyosatshunoslikda gibril urush barcha turdagi geosiyosiy bo'shliqlardan harbiy harakatlar teatri sifatida bir vaqtning o'zida foydalanishni anglatadi. Belgilangan geosiyosiy maydonlarning har birida geosiyosiy makonining muayyan turiga mos keladigan institutlar, manbalar va texnologiyalardan foydalangan holda "gibril urush" olib boriladi. Hozirgi paytda hukmron geosiyosiy makon axborot va mafkuraviydir. Binobarin, ommaviy ongni boshqarish institutlari va texnologiyalari dunyo hukmronligini qo'lga kiritish yoki saqlab qolish uchun katta ahamiyatga ega. Gibril urush butun aholini qamrab oladi, axborot makonining bo'shliqlarini to'ldiradi, shu jumladan bosma va elektron ommaviy axborot vositalari, kiber xujumlar, seminarlar, o'quv kurslarini tashkil etish va muxolifat harakatlari tarafdorlari uchun ma'ruzalar o'qish. U ijtimoiy hayotning eng xilma-xil sohalariga siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalariga taalluqlidir. Oxir oqibat, gibril urushlar nafaqat vaqt, makon va ishlatilgan vositalar chegarasi bo'lmagan qurolli to'qnashuvlardir. Ularning asosiy farqi shundaki, ular urushni siyosiy, iqtisodiy yoki mafkuraviy qarama-qarshilikning boshqa shakllaridan ajratib turadigan chiziqlarni aralashtiradilar. Mashhur "Gibril urush falsafasi" harbiy-falsafiy inshosida rus geosiyosatining klassikasi A.E. Snesev mavzuga quyidagi ta'rifni beradi: "Urush falsafasi bu ilmiy qayta ko'rib chiqilgan yoki oddiyroq o'rganilgan harbiy dunyoqarashdir. Boshqacha qilib aytganda, urush falsafasi urushning mohiyati va mazmuni va u bilan bog'liq bo'lgan yuqori manfaatlar

haqidagi fandır”⁴ Keyinchalik, u gibrud urush falsafasi tarkibiga quyidagi elementlarni taklif qiladi: urush mohiyati, ushbu mavjudot bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy g‘oyalar, urushni bilish usullari, umuman urush haqidagi fan va uning tasnifi haqida bayon qiladi. Gibrud urushlar ijtimoiy barqarorlikka jiddiy zarba berib, ichki siyosiy keskinlikka olib keldi. Shunday qilib, AQSh tomonidan olib borilgan gibrud urushlar rivojlanayotgan polentrik dunyoning "ko‘tarilgan" kuchlarini zaiflashtirish yoki yo‘q qilishga qaratilgan. Rossiya, Eron, va Venesuela kabi davlatlar bejiz emas. Ukrainadagi voqealar yakun sifatida emas, balki Rossiyadagi vaziyatni izdan chiqarishga qaratilgan birinchi bosqich sifatida qaraladi. Buni O‘rta Osiyo mintaqasi respublikalariga o‘tkazish katta xavf tug‘dirdi, bu ham Rossiyaning xavfsizligiga tahdid soldi. “Gibrud urush” texnologiyalaridan XXRga, xususan, Shinjon-Uyg‘ur avtonom mintaqasida foydalanish ehtimoli yuqori, hozirgi paytda AQSh global miqyosdagi hukmronliklarining iqtisodiy poydevorini yo‘q qilishga duchor bo‘lib, tobora kuchayib borayotgan bosimni qoplamoqda va buning oqibatida zaiflashmoqda. Ushbu holat AQShni jahon urushidan manfaatdor qiladi.⁵

Hozirgi kunda gibrud urushlar mavzusi ommaviy axborot vositalarida va turli ilmiy forumlarda faol muhokama qilinmoqda. Mutaxassislar ushbu hodisaning hanuzgacha terminologik barqarorlik va ravshanlikka ega bo‘lmagan turli xil, ko‘pincha o‘zaro istisno ta‘riflarini berishadi. Biroq gibrud urush termini hozirgi kunda mutlaqo boshqacha ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda. Ya‘ni, axborot xurujlari, urushlari, mojarolari va feyk, trolling, xamaleon xabar ko‘rinishida. Mazkur atama va terminlarning media makonda o‘rni qanday va gibrud urushga qay tarzda dahl qilishini ko‘rib chiqamiz. Jahon tajribasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tajovuz hukmronlikning yagona vositasi bo‘lishni to‘xtatgan. Shu

⁴ Kostyuxin A.A. Urushlarning zamonaviy amerika tasnifi. URL: <http://mir-politika.ru/sovremennaya-amerikanskaya-klassifikaciya-voyn.html>.

⁵ Surguladze V.Sh. "Tarmoqli", "gibrud", "yangi" zamonaviy urushlar va globalashuv davrida o‘zlikni anglash siyosati. Milliy strategiya muammolari, RISS, No3 (36), 2016, p. 234-bet

munosabat bilan zamonaviy ilm-fan qarama-qarshilikning bilvosita shakllarini o'rganishga asta-sekin e'tibor qaratib, axborot urushiga alohida e'tibor qaratmoqda.

“Gibrid tahdidlar” ko‘plab dushmanlik sharoitlari va niyatlarini birlashtiradi. Masalan, kiber urush, past intensivlikdagi harbiy to‘qnashuvlar ssenariylar, global terrorizm, noqonuniy migratsiya, korrupsiya, etnik va diniy mojarolar, resurslar xavfsizligi, demografik muammolar, transmilliy uyushgan jinoyatchilik, globallashuv muammolari va ommaviy qirg‘in qurollarining tarqalishi. Globallashuv natijasida yuzaga keladigan xarakterli tendentsiyalardan biri bu xalqaro, mintaqaviy va milliy xavfsizlikka tahdidlarning noharbiy doirasini ko‘payishi bo‘lib, ularning ba‘zilari tubdan yangi sifatga ega. Urushning gibrid usullaridan foydalanish sharoitida tajovuz qurboniga aylangan mamlakat uzoq vaqt davomida axborot-kognitiv texnologiyalarga duch kelmoqda. Ushbu texnologiyalar davlatni, uning ichki holatini madaniy va dunyoqarash sohasiga maqsadli ta’sir ko‘rsatish yo‘li bilan, ijtimoiy ongga buzg‘unchilik g‘oyalarini kiritish, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yomonlashuvi va muxolifat kuchlarini manipulyatsiya qilish orqali beqarorlashtirishga qaratiladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, zamonaviy media makondagi gibrid urushlardan hozirgi kunga qadar hech kim himoyalangan emas. Gibrid hujumlardan aziyat chekkan davlat siyosatda, iqtisodiyotda va jamiyatda xavfsizlikni tiklash uchun bir qator harakatlarni amalga oshirishi kerak. Jahonda gibrid harbiy operatsiyalarni o‘tkazishga yordam beradigan tashkilotlar, axborot va psixologik operatsiyalarni o‘tkazishga mo‘ljallangan maxsus bo‘linmalar mavjud. Gibrid urush va tahdidlarga qarshi kurashishda mediaimmunitet muhim hisoblanadi. Uni shakllantirishda, Ommaviy axborot vositalarida tarqatilayotgan yolg‘on xabarlar, buzib ko‘rsatilgan faktlar, yangiliklar, adabiyotlar va boshqalarni filtrlash kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://uz.m.wikipedia.org>
2. Bartosh A.A. “Axborot urushining adaptiv strategiyalari” - Moskva: Harbiy fanlar akademiyasining Axborotnomasi - № 2 va 3 – 2016.

3. *Knyazeva L.G. XXI asrning gibril urushlari: 2015 yil 29 yanvarda xalqaro universitetlararo davra suhbatl materiallari, - M: VU, 2015, B.3*
4. *Kostyxin A.A. Urushlarning zamonaviy amerika tasnifi. URL: <http://mir-politika.ru/sovremennaya-amerikanskaya-klassifikaciya-voyn.html>*
5. *Surguladze V.Sh. "Tarmoqli", "gibril", "yangi" zamonaviy urushlar va globallashuv davrida o'zlikni anglash siyosati. Milliy strategiya muammolari, RISS, No3 (36), 2016, p. 234-bet*

BASLAWISH KLASLARDA ANA TILI SABAQLARINDA A'MELIY SHINIG'IWLARDAN PAYDALANIW

Babaniyazova Sarbinaz Baxadirovna

A'jiniyaz atindag'i No'kis ma'mleketlik pedagogikaliq institutinin'

Baslawish ta'lim fakulteti 1-kurs talabasi

ANNOTATCIYA

Maqalada baslawish klaslarda ana tili sabaqlarinda temalardi tu'sindiriwde, bekkemlewde qollanilatug'in na'tiyjeli a'meliy shinig'iwlar haqqinda pikirler keltirilgen.

Tayanish so'zler: A'meliy shinig'iw, baslawish klass oqiwshilari, fonetika, grafika, ga'p, so'z shaqaplari.

Bizge belgili bolg'anınday, baslawish klaslar 1-4- klaslardı o'z ishine aladı. Baslawish klaslarda ana tilin oqıtıwdın' maqset ha'm wazıypaları oqıwshılarg'a qaraqalpaq tilin u'yretiw, ana tilinde durıs jazıw, so'ylew, oqıwdı, grammatika ha'm imlanı o'zlestiriwin ta'miyinlew bolıp esaplanadı.

1-klasta da'slep sawat ashıw sabaqları eki sherek dawamında alıp barıladı. Bunnan keyin 1-klastın' 3-shereginen baslap 4-klass aralıg'ında ana tili sabaqlıg'ı o'tiledi. Baslawish klaslarda ana tilinen a'piwayi, baslang'ish tu'sinikler beriledi. Atap aytqanda, 1-2-klaslarda fonetika ha'm grafikag'a baylanisli temalardi u'yreniwge u'lken itibar qaratiladi. Sebebi, oqıwshılar bul da'wirde oqıw ha'm jazıw procesin endi g'ana iyelep atırg'an boladı.

Fonetika ilimi seslerdin' jasaliwin, seslik nizamlılıqlarin, tildin' buwin qurılısin u'yreledi. Bunda oqıwshılar qaraqalpaq tilindegi seslerdi, olardıń jasalıwın, ha'rqıylı nizamlılıqların u'yrenedi. Bunnan tısqarı buwın haqqında da mag'luwmat aladı. A'lbeste, oqıwshılar 1-klastın' da'slepki eki shereginde buwıng'a bo'lip oqıwdı ha'm

jazıwdı u'yrengen boladı. Al, fonetika bo'liminde bolsa, qaraqalpaq tilindegi buwinlardın' tu'rleri menen tanısadı. Grafika- bul ha'ripler ha'm sesler ortasındag'i o'z-ara mu'na'sebetlerdi u'yreniwshi ilim tarawı bolıp esaplanadı. Grafika- jazıwda qollanilatug'in tan'balar bolıp esaplanadı. Grafika menen oqıwshılar 1-klastan baslap islesedi. Sebebi, a'lipbedegi ha'riplerdin' o'zi grafika esaplanadı. Ha'riplerden basqa da ko'plegen tan'balar bar. Bular: irkilis belgileri, arab ha'm rim cifrları, formulalar h.t.b. Ses ha'm ha'rip boyınsha ha'rqiylı a'meliy shinig'iwlar alıp bariw mu'mkin. A'meliy shinig'ıw ha'm tapsırmalar oqıwshılarg'a temanı bekkemlew ushın u'lken ja'rdem beredi.

I. So'zlerde neshe buwin, neshe ses bar ekenligin tabiw. Misali, a-na (3 ses, 2 buwin), ba-la (4 ses, 2 buwin).

II. So'zlerdegi seslerdi birimlep aytiw: w-a-t-a-n, a-t-a, n-a-b-a-t, m-e-k-t-e-p.

III. Qanday da bir so'zdegi tek g'ana bir ha'riptin' ornın basqa ha'ripke almastırıp jan'a so'z payda etiw. Misali: ana- ata- ag'a- apa, bala- dala- qala- shala.

IV. So'zlerdi jasawda sanlardan paydalaniw: 5ik (besik), 1ik (birik), 8ayaq (segizayaq).

V. So'zdin' basına yaqı aqırına ha'rip qosıp jan'a so'z jasaw. Misali: ala- bala, saba- saban.

VI. So'zlerdin' ortasına ha'rip qosıp yaqı ortasınan bir ha'rip alıp taslap jan'a so'z payda etiw. Misali: ana-ayna, balıq- baylıq, ko'lmek- ko'mek.

VII. So'zdegi buwındı yaqı sestı tu'sirıp qaldiriw. Misali: anar- nar, bayla- bay, qapı- qap.

VIII. Buwinlardın' ornın almastiriw: Nargu'l- Gu'lnar.

IX. Ha'riplerdin' ornın almastiriw: Azat-taza.

X. Bir-biri menen tutasıp ketken sesler izbe-izliginen so'zlerdi ajiratiw. Misali: almaqepteru'yaynaqapımektep – alma, kepter, u'y, ayna, qapı, mektep.

3- klasta ana tili sabag'ında tiykarinan ga'p teması u'yreniledi. Ga'p u'stinde islew oqıwshılardin' so'ylewin o'siriwde u'lken a'hmiyetke iye. Ga'p u'stinde islewdin' tiykarig'i waziypası oqıwshılardi sintaksislik ta'repten durıs ha'm aniq ga'p

du'ziwge u'yretiw bolip esaplanadi. Ga'p u'stinde islew boyinsha birneshe shinig'iwlaridi ko'rip otemiz.

I. U'lgini oqiw ha'm jaziw. Bul ga'p u'stinde islewdin' na'tiyjeli usillarınan biri esaplanadı. Bunda oqıwshı kitapta berilgen ga'plerdi oqıydı ha'm jazadı.

II. Soraw tiykarında ga'p du'ziw. Bunda berilgen sorawg'a juwap beriw ushın qısqa mazmundag'ı emes, ba'lki, tolıq ga'p du'ziledi. Mısalı, Soraw: Bu'gin ana tili sabag'ınan qanday tema o'tildi? Juwap: Bu'gin ana tili sabag'ınan «Ga'p» teması o'tildi.

III. Aralas berilgen so'zlerden ga'p du'ziw. Misali: keldim u'yge Men - Men u'yge keldim.

IV. Aralas berilgen ga'plerden tekst du'ziw. Bunda qısqasha, yag'nıy eki yamasa u'sh ga'pten du'zilgen tekst beriledi. Mısalı, Balalar qarboran oynadı. Bu'gin qar jawdı. Bu'gin qar jawdı. Balalar qarboran oynadı.

V. Noqatlar qoyilmag'an, bas ha'ripler berilmegen tekstten ga'plerdi ajiratiw. Mısalı, Men bu'gin erte turdım mektepke kettim bu'gin ana tili oqıw matematika sabaqları boldı. Men bu'gin erte turdım. Mektepke kettim. Bu'gin ana tili, oqıw, matematika sabaqları boldı.

VI. Su'wret tiykarında bir yamasa birneshe ga'p du'ziw. Bunda oqıtıwshı oqıwshılarg'a ga'p qurawg'a an'sat, tu'sinikli, olardıń jasına mas bolg'an su'wretlerden paydalanıwı kerek.

4- klasta so'z shaqaplari tiykarg'i o'tiletug'i tema bolip tabiladi. Baslawish klaslarda so'z shaqabin oqitiw biraz qiyin ha'm juwapkershilikli is. So'z shaqaplari u'yretiwde birneshe a'meliy shinig'iwlaridi ko'rip o'temiz.

I. Ha'rbir so'z shaqabin o'tip atirg'an waqıtta sol so'z shaqabına tiyisli so'zlerdi oqıtıwshı aytıwı kerek. Keyin, oqıwshılardıń o'zlestiriw da'rejesin anıqlaw ushın olarg'a sorawlar beriwı kerek.

II. O'tip atirg'an so'z shaqabına tiyisli ha'm tiyisli emes bolg'an so'zlerdi ajiratiw. Misali: atliq so'z shaqabin o'tip atir , ana, bala, nan, qiziq, aq, uzin, oynaw. Bunda atliq so'zler ana, bala, nan so'zleri.

III. O‘tilgen temadag‘i so‘zlerdi jazdiriw ha‘m ma‘ninin tu‘indiriw.

IV. Ko‘rgizbeli materiallardan paydalanuw. Yag‘niy o‘tilip atirg‘an so‘z shaqabina tiyisli su‘wretler ha‘m klass ishindegi buyimlardi ko‘rsetiw.

V. Ga‘ptegi so‘z shaqaplarin aytuw. Misali: Eki (sanliq) u‘yrek (atliq) ju‘zip baratir (feyil).

VI. So‘z shaqaplarinin‘ sorawlarin aytuw: alti (neshe?) alma (ne?).

Baslawish klass oqıwshıları mektepke kelgen waqıtında ele oyın balası halında keledi. Durıs, ha‘zirgi waqıtta balalardıń ko‘pshiligi mektepke shekemgi ta‘lim ma‘kemelerine baradı. Ol jerde oqıw ha‘m jazıw boyınsha baslang‘ısh tu‘siniklerdi iyelep keledi. Bul, a‘lbette, oqıwshıg‘a alıpbeni u‘yreniwde birqansha an‘sat boladı. Biraq, basqa pa‘nlerdi u‘yretiwde oqıtıwshı biraz ku‘sh sarıplaydı. Baslawish klass oqıwshıları uzaq waqıt dawamında bir na‘rse menen shug‘illanıwdı xosh ko‘rmeydi. Tema o‘tip atirg‘an waqıtta oqıtıwshılar tek g‘ana kitapta berilgen qag‘ıydalar ha‘m shınıg‘ıwlar menen sheklenip qalmawı tiyis. Bul oqıwshılardı tez sharshatadı ha‘m zeriktiredi. Sol sebepli, oqıtıwshılar joqarıda atap o‘tilgen shınıg‘ıwlardı a‘meliyatta paydalanıwı maqsetke muwapıq boladı.

PAYDALANILG‘AN A‘DEBIYATLAR

1. A. Pirniyazova, Q. Pirniyazov h.t.b. « Baslawish klaslarda ana tilin oqitiw metodikasi»

2. Karima Qosimova h.t.b. « Ona tili o‘qitish metodikasi».

“QISASI RABG‘UZIY” DAGI SHE’RIY JANRLAR TARKIBI

Burxanov Zavqiddin Sherali o‘g‘li

Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

zavqiddinburxanov914@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada “Qisasi Rabg‘uziy”da arab va turkiy (o‘zbek) tilida she‘rlar bitilgan. Asarda g‘azal, ruboiy, qit‘a, qasida kabi janrlarda 550 dan ortiq misra she‘r mavjud. Bu she‘rlar Rabg‘uziyning mohir shoir ekanligidan darak beradi. Shu bilan bu she‘rlar yuksak mahorat bilan bitilganki, ular asar muallifining aruz vaznidan yaxshi xabardorligini ko‘rsatadi. Arabcha she‘rlarning turkiycha tarjimasi muallif tomonidan amalga oshirilgan. Asarda arabcha she‘rlarning uchrashi tabiiy hol. Chunki, asar Qur‘oini Karim va Hadisi shariflar tasirida yuzaga kelgan. Bu she‘rlar asar mazmunini to‘ldiradi, g‘oyaviy maqsadni yuzaga chiqarishdagi o‘ziga xos badiiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Asar badiiyati ham o‘ziga xos. She‘riy parchalardan tashqari juda ko‘p o‘rinlarda voqealar bayoni, holatlar tasvirida tashbeh, tanosub, tazod, tajnis takrir, jonlantirish kabi tasviriy vositalardan unumli foydalangan.

***Kalit so‘zlar:** “Qisasi Rabg‘uziy”, she‘riy janrlar, Qur‘oni Karim, Hadisi sharif, muxallas, murabba‘, fard.*

СОСТАВ ЖАНРОВ ПОЭЗИИ В “КИСАСИ РАБГУЗИ”

АННОТАЦИЯ

В этой статье в “Кисаси Рабгузи” написаны стихи на арабском и тюркском (узбекском) языках. В произведении более 550 стихотворений в таких жанрах, как газель, рубаи, континент, Касыда. Эти стихи свидетельствуют о том, что Рабгузи был опытным поэтом. При этом эти стихи написаны с высоким мастерством, что свидетельствует о хорошем осознании автором произведения веса аруза. Турецкий перевод арабских стихов выполнил автор. Вполне естественно, что в произведении встречаются арабские стихи. Потому что Коран и хадисы произведения возникли под влиянием Шарифов. Эти стихи дополняют содержание произведения, служат своеобразным художественным

инструментом в выведении идейной цели на поверхность. Искусство работы тоже уникально. Помимо поэтических отрывков, во многих местах повествование о событиях плодотворно использовало такие изобразительные средства, как аллегория, таносуб, тазод, таджнис такрир, оживление в изображении обстоятельств.

Ключевые слова: “Кисаси Рабгузи”, поэтические жанры, Коран, хадис Шариф, мухаллас, мурабба’, фард.

COMPOSITION OF POETIC GENRES IN "QISA RABGUZIY"

ANNOTATION

This article contains poems in Arabic and Turkic (Uzbek) in “Qisasi Rabguziy”. The work contains more than 550 stanzas of poetry in genres such as Ghazal, ruboi, continent, qasida. These poems testify to the fact that Rabghuzi was a skillful poet. With this, these poems are finished with high skill, which indicate that the author of the work is well aware of the weight of aruz. The Turkish translation of the Arabic poems was done by the author. It is natural for Arabic poems to meet in the work. Because the Qur’an of the work was influenced by Karim and Hadith by the Sharifs. These poems complement the content of the work, serve as a kind of artistic tool in bringing the ideological goal to the surface. The art of the work is also unique. In many places, in addition to poetic passages, the narrative of events made the most effective use of such pictorial means as thirst, tanosub, tazad, tajnis takrir, revitalization in the image of circumstances.

Keywords: “Qisasi Rabguziy”, poetic genres, Korani Karim, Hadisi sharif, muxallas, murabba’, fard.

“Qisasi Rabg‘uziy”da arab va turkiy (o‘zbek) tilida she’rlar bitilgan. Asarda g‘azal, ruboiy, qit‘a, qasida kabi janrlarda 550 dan ortiq misra she’r mavjud. Bu she’rlar Rabg‘uziyning mohir shoir ekanligidan darak beradi. Shu bilan bu she’rlar yuksak mahorat bilan bitilganki, ular asar muallifining aruz vaznidan yaxshi

xabardorligini ko'rsatadi. Arabcha she'rlarning turkiycha tarjimasi muallif tomonidan amalga oshirilgan. Bu narsa muallifning har ikki tilni mukammal bilgani va bu tillarda baravar ijod qila olganini ko'rsatadi. Asarda turli hajmda 59 ta she'r bo'lib, ularning qirqtasi turkiycha (o'zbekcha), o'n to'qqiztasi arab tilida. She'rlar asar mazmunini to'ldiradi, muallifning g'oyaviy-badiiy maqsadini yuzaga chiqarishda o'ziga xos badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular g'azal, musallas, murabba', fard singari janrlarning ilk ibtidoiy namunalari bo'lgani uchun ham mazkur shakllardagi she'rlarning janr talablariga to'la-to'kis javob bera olmaydi.

Shunday bo'lsa-da, bu she'rlar Rabg'uziy dahosining nafaqat mohir nosir, ayni paytda iste'dodli shoir bo'lganini ham isbotlaydi.

Asarda arabcha she'rlarning uchrashi tabiiy hol. Chunki, asar Qur'oini Karim va Hadisi shariflar tasirida yuzaga kelgan. Bu she'rlar asar mazmunini to'ldiradi, g'oyaviy maqsadni yuzaga chiqarishdagi o'ziga xos badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Asar badiiyati ham o'ziga xos. She'riy parchalardan tashqari juda ko'p o'rinlarda voqealar bayoni, holatlar tasvirida tashbeh, tanosub, tazod, tajnis takrir, jonlantirish kabi tasviriy vositalardan unumli foydalangan. Xususan, sa'j (nasrdagi ichki qofiya) adibning sevimli badiiy vositasi ekanligi ko'zga tashlanadi. Muallif sa'jdan asosan ta'rif va tavsif o'rinlarida foydalanadi. Masalan, Idris alayhissalom ta'rifi: "...payg'ambar alayhissalom ul umri ukush, diyori ko'shish, Azroilg'a qotishg'an, rizvon birla yanashg'an, dunyodin qushdek uchg'an, tamug'g'a kirib chiqg'an, Sirot din yashindek kechg'an, uchmoh qabug'in ochg'an, o'zi aziz, o'rni adiz arig' zotlig', Axnuh otlig' Idris yalovoch"⁶. Asar tarkibidagi nazmiy parchalarning ahamiyatli jihati shundaki, bu she'riy parchalar janrlarning ilk ko'rinishlarini tashkil qilgan. Asarda g'azal, musammat, g'azal-marsiya janrlarining ilk ko'rinishlari uchraydi. Bahor vasfiga bag'ishlangan birinchi turkiy g'azal alohida ahamiyatga ega. G'azal shunday misralar bilan boshlanadi:

⁶ Nosiruddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 1-kitob, -T.: Yozuvchi, 1990.-B.156

Kun hamalga kirdi ersa, keldi olam navro'zi, Kechdi bahman zamharir qish, qolmadi qori, buzi.

So'ng olamning go'zal bir manzara kasb etgani, atrofning go'zalligi tavsiflanadi:

Kun kelu ming ko'rki ortib tirilur o'lmish jahon, Tong badizlab naqshi birla bezanur bu yer yuzi.

Tasvirda jonlantirish, sifatlash va o'xshatishlar asosiy o'rin tutadi. Muhimi, ularda Rabg'uziyning tasavvur kuchi va badiiy mahorati ochiq ko'rinadi:

*...O'rlasa bulutlari gulchirar bog'-u bo'ston,
Tol yig'ochlar yeng solishur o'ynayurtek qo'y-qo'zi.
...Lola sag'roqin icharda sayrar usrub sanduvach,
Turnalar un tortib o'tarda sakrashur baqlan, qo'zi.
Ko'kda o'ynar, qo'l solishur qug'u, g'oz, qil, qarlug'och,
Yerda yugurub juft olishur os, tiyin, kish, qunduzi.
Tol yig'ochlar minbarinda to'ti qush majlis tutar,
Qumri, bulbul muqri bo'lub un tuzar tun-kunduzi.
...Huri ayn ujmoh ichinda yeng solib tahsin qilur,
Yoz uza mundog' g'azallar aymishdi Nosir Rabg'uziy.*

O'zbek adabiyotidagi bu ilk g'azalda Rabg'uziy janrning barcha shakily badiiy talablariga mukammal darajada rioya etgan. She'ning matla'sidan maqta'sigacha navro'z ta'rif-tavsifi aks ettiriladi. G'azalning qofiyalanishi bugungi qofiyalanish tizimiga to'liq javob beradi. Ya'ni , a-a, b-a, c-a, d-a tarzda. Navro'zi, buzi, yuzi, yozi, tuzi, qo'y-qo'zi, juzi, qo'zi, qunduzi, yulduzi, Rabg'uziy so'zlaridan tashkil topgan qofiyalar tizimi turkiy til tarovatini ko'rsatuvchi omillardan biri bo'lgan. Maqta'da ilk bor taxallus ishlatilgan. Vazn ham o'ynoqi bo'lib, g'azal uchun turkiy adabiyotda keyinchalik eng ko'p qo'llangan vazn- ramal tanlab olingan.

Kun ha-mal-ga\kir-di er-sa,\kel-di o-lam \ nav-ro‘-zi, - V - - \ - v - - \ - v - - \ - v -
- Fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lun Kech-di bah-man \ zam-ha-rir qish\ qol-ma-
di qo-\ri, bu-zi - V - - \ - v - - \ - v - - \ -v - Fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lun

Ko‘rinib turganidek, ramal bahrining rukni foilotun ohanglariga tayanadi. Bir bayt (ikki misra)dab u rukn sakkiz marta qo‘llangani uchun musamman nomini oladi. “Musamman” arabcha so‘z bo‘lib , sakkiz degan ma‘noni bildiradi. Oxirgi rukn avvalgilaridan qisqaroq, unda bir hijo kam. Ushbu shakl mahzuf deyiladi. Vaznning to‘liq nomi ramali musammani mahzufdir. G‘azalning barcha baytlari o‘zaro mantiqiy ip (navro‘z) bilan bog‘langan. Ana shu ichki bog‘liqlik g‘azal yaxlitligini ta‘minlagan. Dastlabki bayt umumiy axborot berishga qaratilgan. Qishning o‘rniga bahorning kelishi ko‘rsatilgan. Bunda muallif munosabatining ochiq ifodalanishi e‘tiborni tortadi. Bahorga nisbatan “olam navro‘zi” ifodasi qo‘llansa, qishga nisbatan “bahman” (ayoz, qahraton, izg‘irin) “zamharir” (qirovli,qahraton,qattiqsovuq) sifatlashlari tanlangan. Keyingi baytlar bahorning xususiy jihatlarini tasvirlashni ko‘zda tutadi. Dastlab dunyoning yangidan chiroy ochgani (“tirilur bu yer yuzi”) qalamga olinadi. Osmon va yerdagi o‘zgarishlarni aks ettirish navbatdagi bayt qamroviga kiradi. Unda bulut va daraxtlarning o‘ziga xos manzarasi ko‘rsatiladi. *Lola, bulbul, turna, qo‘zi* so‘zlari bahorning turli belgilarni ifodalash vositasi bo‘lgan. “Yerosmon” zidligi asosida bahorning o‘ziga xos tasvirini berish keyingi baytda ham davom etadi. Bahor osmonida qushlarning ko‘payishi qug‘u (oqqush), g‘oz, qil(qilquyruq), qarlug‘och(qaldirg‘och) vositasida ko‘rsatilsa, yerdagi jonivorlar harakatining jonlanishi os (oq suvsar), tiyin (olmaxon), kish (qunduzning bir turi), qunduz singari hayvonlar timsollari vositasida tasvirlangan. Qadimgi turkiy tilda “yig‘och”, “og‘och” so‘zlari, asosan, “daraxt” tushunchasini ifodalagan. Navbatdagi baytda tilga olingan “tol yog‘och minbarinda” (tol daraxtning shoxlarida) ifodasi xuddi shu ma‘noni yuzaga chiqaradi. Bu baytda bir qator qushlar (to‘ti, qumri, bulbul)ning xonishi – sayrashi orqali bahor faslining tarovati yana bir bor ta‘sirli yo‘sinda tasvirlangan.

Asar tarkibida o‘ttiz ikkita g‘azal xususiyatlariga mos keluvchi g‘azal

xarakteridagi she'rlar mavjud. Ularning orasida to'liq mukammal g'azal deb hisoblashimiz mumkin bo'lgan g'azallar ko'pchilikni tashkil qiladi. Asarda ayrim matla'siz, hamda maqta'siz baytlar ham uchraydi. Ular qofiyalanish tizimi va vazn jihatdan g'azal talablariga javob bo'ladi. Bunday xususiyat aksariyat arabcha she'rlarda uchraydi. G'azallarda, asosan, payg'ambarlar madh etilgan bo'lib, Odam, Ibrohim, Mustafu, Yaqub, Lut, Jirjis, Ilyos, Yunus, Sulaymon, Dovud, Idris, Nuh, Xud, Solih, Is'hoq, Yusuf va boshqa bir qancha payg'ambarlar g'azallar g'oyasini tashkil qiladi. g'azallarda payg'ambarlarning qiyinchiliklari, kuchqudrati, xususiyatlari, ichki his-tuyg'ulari kuylangan.

“Qisasi Rabg'uziy”da birinchi she'r – ilk marsiya o'rin olgan. Bu marsiyani Odam Ato o'g'li Hobilning o'limiga bag'ishlab aytadi. “Qissai Qobil va Hobil”da tasvirlanishicha, Qobil bilan Iqlimo, Hobil bilan Abudo tug'iladi. Iqlimo go'zal. Abudo ko'rksiz edi. Qobilga Abudo beriladigan bo'ldi, u ko'nmadi. Odam ularga qurbonlik qilishni, kimning qurbonligi qabul bo'lsa, Iqlimo berilishini aytdi. Hobilning qo'yi qabul bo'ldi. Qobil tosh bilan urib Hobilni o'ldirdi. Qarg'alarga qarab, Hobilni yerga qo'ydi. Odam ko'mish shundan qoldi. (30- 31- betlar). Asarda keltirilishicha, “Odam birla Havvo telim yig'ladilar. Odam ta'ziyat tutub bu she'rni aydi. Yer yuzinda avval she'r ayg'an Odam erdi, ul she'r bu turur:

Tag'ayyarat ul biladu va man alayxa

Va vajhul arzi mug'ayyirun

Masihu Faajabahu iblis la'natullohi alayxa

Tag'ayyara kullu zi- lavnin va ta'min

Va qad bashashtil vajhil maluhu

Bi qatli Qobilin Hobilin axaxu

Fa yo asafa alal- vajxis –sabihi...”

“Qisasi Rabg'uziy” turk badiiy nasrining ilk namunalaridan biri sifatida adabiyotimizda o'ziga xos o'ringa ega. Asar tarkibida yuqorida ta'kidlaganimizdek, nazmiy parchalarning ilk ko'rinishlari ham asarning tarixiy badiiy-ilmiy qiymatini

oshiradi. Shunday janrlardan biri musammat janri asar qimmatini yanada oshiradi. Musammat janrining ba'zi turlari ilk bor ushbu asarda uchraydi. Musammatlar ko'p misrali va ko'p qofiyali band sistemasidan yuzaga keluvchi she'r shakllaridir. Yana ham aniqrog'i, g'azal tipida qofiyalanuvchi, har bir bandi 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10 misrali bandlardan tashkil topgan she'riy shakllar turkumiga musammat deyiladi. Ularning har biri bandlardagi misralar soniga qarab musallas (uchlik), murabba' (to'rtlik), muxammas (beshlik), musaddas (oltilik), musabba' (yettilik), musamman (sakkizlik), mutassa' yoki tasne' (to'qqizlik), muashshar yoki mashru' (o'nlik) nomlari bilan ataladilar. Asar tarkibida musammat xarakteridagi she'rlarni jamlaganda, ularning quyidagi shakllari aniqlanadi:

Musallas (uchlik) xarakteridagi she'rlar – 2 ta.

A) Nosiruddin To'qbug'abek madhi – 11 band (33 misra)

B) Ismoil Alayhis-salom Qisasi tarkibida – 3 band (9 misra)

“Qisasi Rabg'uziy” asarida turkiy musallasning ilk ko'rinishi uchraydi. Rabg'uziydan oldin musammatning bu shaklida hech kim ijod etmagan. Musallas shaklida ijod qilish bir muncha qiyinchilik tug'dirgan. Fikr to'liq va izchil bo'lishi qiyin bo'lgan. Shuning uchun bu shakl Rabg'uziydan keyin ham uchramaydi. Faqat XIX asrga kelib o'zbek shoirlaridan Uvaysiy ijodida musallas shaklining go'zal namunalari ko'rishimiz mumkin⁷. Rabg'uziy ijodidagi musallas bu shaklning ilk mukammal ko'rinishi hisoblanadi. Asardagi Nosiriddun To'qbug'abek ta'rifi misolida buni ko'rishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, Rabg'uziy o'zbek adabiyotida murakkab kompozitsion qurilishga ega bo'lgan dastlabki nasriy “Qisasi Rabg'uziy” asarini yaratish bilan nafaqat qissaxon adib, balki ayrim she'riy janrlarning ilk muallifi hamdir. “Qisasi Rabg'uziy”ning nasriy asar ekani xususiyatidan kelib chiqib Rabg'uziy ijodi shu vaqtga qadar faqat nasriy mezonlar asosida o'rganilgan. Uning she'riy iqtidori va poetik mahorati tadqiqotlarda doimo ikkinchi planda o'rganib kelingan. Rabg'uziy ijodini shoirlik va she'riyat mezonlari asosida atroflicha o'rganish vaqti allaqachon yetib kelgan.

⁷ R.Orzibekov. O'zbek lirik she'riyati janrlari.-T.: Fan., 2006.-B.70-71.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *Abdushukurov B. “Qisasi Rabg’uziy” leksikasi. Monografiya. – T.: Akademiya, 2008. – 192 b.*
2. *Mallaev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. –T.: O‘qituvchi, 1976. -664 b.*
3. *Mahmudov M. Ahli dil. – T.: G’.G’ulom nomidagn Adabiyot va san’at nashriyoti. 1997. - 312 b.*
4. *Muhiddinov M. Barhayot an’analar. – T.: Fan. 1987. - 79 b.*
5. *Muhammad payg’ambar alayhis-s-salom qissasi. Hadislar. – Toshkent.: Kamalak, 1991. - 304 bet.*

UDK: 616.981.43.

GOLSHTIN ZOTIGA MANSUB SIGIRLARDA PERSISTENT SARIQ TANANING TARQALISHI VA SABABLARI

Doktorant **S.A.Suvanov**
Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada golshtin zotiga mansub mahsuldor sigirlarda persistent sariq tana kasalligining tarqalishi va bu kasallikni keltirib chiqatuvchi sabablar bayon etilgan.

***Kalit soʻzlar:** tuxumdonlar, gipofunksiya, kista, sariq tana, ovarit, oqsillar, uglevodlar, vitaminlar.*

АННОТАЦИЯ

В этой статье описывается Распространенность персистентного желтого тела у продуктивных коров голыштинской породы и причины, вызывающие это заболевание.

Mavzuning dolzarbligi. Oxirgi yillarda Respublikamizda qoramolchilikni fan yutuqlari va ilgʻorlar tajribalar asosida rivojlantirish, oziqa bazasini mustahkamlash va mahsulot ishlab chiqarish hamda uni qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish, qoramollar zotini yaxshilash va genofondini boyitishga katta eʼtibor qaratilmoqda.

Respublikamizning jadal texnologiyalar asosida rivojlanayotgan chorvachilik fermer xoʻjaliklari sharoitida mahsuldor sigirlarda oziqlantirish va parvarishlash qoidalariga amal qilinmasligi oqibatida patologik sariq tana tufayli bepushtlik koʻp qayd etilib, uzoq muddat qisir qolishi oqibatida sut mahsuldorligining pasayishi, buzoq olishning kamayishi, mahsuldor sigirlardan foydalanish muddatining keskin qisqarishi, kasalliklarni davolash va oldini olish uchun veterinariya xarajatlari hisobiga katta iqtisodiy zarar yetkazmoqda. Shu sababli ushbu patologiyalarga tarqalishi, ertachi diagnoz qoʻyish hamda oldini olishning samarali usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq qilish dolzarb xisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili.

Adabiyot [4] maʼlumotlariga koʻra, sigirlarning asosiy podadan chiqarilishiga 80-90% hollarda bepushtliklar, moddalar almashinuvi buzilishi kasalliklari – 74-90%, sut

bezlarining kasalliklari – 17%, tuxumdonlar gipofunksiyasi – 19%, tuxumdonlarning follikulyar va lyuteal kistalari – 3%, oyoqlarning kasalliklari – 15-17 %, ovqat hazm qilish tizimining kasalliklari - 14-16%, mahsuldorlikning past bo‘lishi – 18 % hollarda sabab bo‘ladi. Sigirlardan xo‘jalikda foydalanish o‘rtacha 2,6 laktasiyaga teng bo‘lgan.

Bepushtlikning belgilari hayvonning uzoq muddat davomida kuyga kelmasligi, bir necha marta urug‘lantirishdan keyin ham urug‘lanmaslik, jinsiy sikl muddatlarining buzilishi hisoblanadi [2].

Hayvon yetarlicha oziqlantirilmaganda organizm zaiflashadi, bu jinsiy jarayonlarga ta‘sir etadi (kuyikish va ovulyasiya bo‘lmaydi). Hayvonlar oqsil, uglevod yoki yog‘larga boy bir xildagi oziqalar bilan uzoq muddat boqilganda tuxumdonlar funksiyasi susayib, ularning maxsus to‘qimasi asta-sekin yog‘ kletchatkasi bilan almashinadi. Semirib ketgan hayvonlarning tuxumdoni kichrayibgina qolmay, balki zichlashadi ham, bunda urg‘ochi hayvon avvaliga qisqa muddatga kuyukadi, keyin esa butunlay kuyikmaydi [4].

N.M. Xilkevicha (2001) tadqiqotlariga ko‘ra sigirlarda tuxumdonlar kasalliklari 30% mustaqil ravishda va 70% hollarda boshqa jinsir organlar yalig‘lanishlari bilan birga uchraydi [5].

V.M. Shiriyev (2000) ma‘lumotiga ko‘ra klinik tadqiqotlar asosida sigirlarda tuxumdonlarning gipofunksiyasini paydo bo‘lishi tug‘ruq va tug‘ruqdan keyingi davr ta‘sir ko‘rsatadi degan xulosaga keldi. Tuxumdonlarning gipofunksiyasi anafrodisiya va katta uchinchi follikullarning yo‘qligi bilan namoyon bo‘ldi. Natijada, sigirlarda tuxumdonlarning funktsional buzilishlari va tuxumdonlarning gipofunksiyasi turli muddatlarda bepushtlikka olib keladi nafaqat mamlakatimizning turli hududlarida, balki boshqa davlatlarda ham keng tarqalgan bo‘lib, va chorvachilik sanoati uchun muhim iqtisodiy zarar [6].

Adabiyotlar [2] ma‘lumotlariga ko‘ra, sigirlarda modda almashinuvlarining buzilishi va reproduktiv xususiyatlarining yomonlashishiga essensial mikroyelementlarning (I, Co, Zn, Cu, Fye) rasionda yetishmasligi hamda hayvonlarni antisanitariya sharoitlarida saqlash sabab bo‘ladi.

Hayvon me'yorida oziqlantirilganda ham modda almashinuvi buzilishlari kuzatilgan (oshqozon-ichak va boshqa a'zolar kasalliklarida) bo'lsa, alimantar qisirliklar kelib chiqishi mumkin [5].

Tadqiqotning maqsadi. Golshtin zotiga mansub sog'in sigirlarda persistent sariq tananing tarqalishi va keltirib chiqaruvchi sabablarini o'rganish ishning maqsadini tashkil etadi.


Tadqiqot obekti va usullari. Tadqiqotlarimiz Toshkent viloyati Bo'ka tumanidagi sut yo'nalishidagi qoramolchilik fermer xo'jaligida olib borildi. Tekshirishlar obyekti sifatida 50 bosh 4-5 yoshdagi 2-tug'um golshtin zotiga mansub sog'in sigirlar ajratib olindi. Dastlab, qoramollarda klinik tekshirishlar o'tkazilib, semizlik darajasi, ishtaha, shilliq pardalar, teri va teri qoplamasining holati, tana harorati, bir daqiqadagi yurak urishi va nafas soni, katta qorin devorining 5 daqiqadagi qisqarishlar soni, jinsiy az'olar holati va jinsiy reflekslarning namoyon bo'lishi aniqlandi. Sigirlarning bug'ozligi to'g'ri ichak orqali aniqlandi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Xo'jalikda sigirlar rasioni asosan silos-konsentrat tipda ekanligi bilan xarakterlanadi. Rasion tarkibi 40 kg silos (71,4%), 1,5 kg beda pichani (2,7 %), 1,5 kg somon (2,7 %), 3,5 kg makka yormasi (6,2%), 1,5 kg paxta shroti (2,7 %), 2 kg kungaboqar shroti (3,5%), 1 kg bug'doy yormasi (1,8%), 2,5 kg barda (4,5%), 2,5 kg arpa (4,5%), yormasidan iborat bo'lib, rasion to'yimliligi 23,7 oziqa birligini, tarkibida quruq modda 23,41 kg, xom protein 7012,5 g, hazmlanuvchi protein 3477,5 g, xom klechatka 4626 g, qand 907 g, yog' 794 g, osh tuzi 4,7 g, kalsiy 199,45 g va fosfor 124,25 g ni tashkil etdi.

Rasion to'yimligi oziqlantirish me'yorlariga solishtirilganda nisbatan hazmlanuvchi proteinni 1177,5 g, xom protein 3472,5 g, kalsiy 44,45 g va fosfor 13,5 g ortiqchaligi quruq modda 1,79 g, xom klechatka 134 g, qand 1508 g, yog' 21 g, osh tuzi 20 g, tanqisligi aniqlandi. Qand- oqsil nisbati 0.8-1.2:1 o'rniga 0,5:1 ni, fosfor-kalsiy nisbati 0,8 o'rniga 0,5 ni tashkil etdi. Rasionda oziqlantirish me'yorlariga nisbatan hazmlanuvchi protein, xom kletchatka, xom yog' va fosforning ortiqchaligi, qand va kalsiyning tanqisligi qand-oqsil va kalsiy-fosfor nisbatlarining pastligi, sigirlar

uchun quyosh nurlari va masionning yetishmasligi sigirlarda tuxumdonlar gipofunksiyasi oqibatida bepushtliklarni kelib chiqishida asosiy alimentar omillar hisoblanadi deb xulosa qilish mumkin.

Humans are the only species naturally and genetically designed to use language. This intrinsic and unique trait has been the object of interest for the scientific community since time immemorial. The scientific study of language, the field known as linguistics, attempts to solve questions about what the components of languages are, how we produce them, and how languages evolve over time. In this study, we will focus on the question of how we learn a language. Language is a highly complex object of study, and what makes us innately predisposed to learning it has always been a crucial question. To understand how language acquisition evolved, we need to go back to the 1960s, when linguists like Noam Chomsky developed the theory that language, unlike other abilities, could not be learnt through a process of imitation, or trial and error. The study of human language presented interesting features hardly present in other learning processes, as individuals are able to produce an unlimited number of combinations of new words and meanings that exceed the variety of stimuli the individual in question could have been exposed to. In other words, children are able to produce content and weave together different linguistic elements to build a sentence they have never heard before. This was one of the principles used to confirm that the human brain possesses a unique trait known as "language faculty". Later, Chomsky

put forward his Universal Grammar hypothesis, proposing that all human languages share an innate “system of categories, mechanisms and constraints”.

METHODOLOGY

Inter-language is defined by linguists as the “system of learner language produced by adults when they attempt meaningful communication using a language they are learning” (Tarone) or a “midway of a second language learner towards the rules of [that] language”. Other researchers also observe that when adults are learning a second language, “second language learners [...] are developing a grammar that is systematic even if it is not nativelike.” (Archibald, 1998, p.2). Inter-language is thus a representation formed in the learner’s mind that combines the learnt features of the L2 plus the transferred ones from their first language (L1).

Inter-language shapes learners’ utterances when they aim to produce content in their target language. Given the same meaning, utterances produced by most second language learners are generally not identical to what a native speaker would say to express the same concept, at least if we include phonetics in the equation (Selinker, 1972, p. 214). The two products (the second language learner’s utterances and the native speaker’s) are not exactly alike, which is why the theory of inter-language suggests the “existence of a separate linguistic system” (Selinker, 1972, p. 214) that works as a bridge between the first and the second language in the learner’s mind.

RESULT AND DICUSSION

Modal and auxiliary verbs in sequence: The future tense in Spanish is marked with inflectional affixes attached to the verb, while English uses the auxiliary ‘will’. To express a verb in the future, Spanish speakers need to use the future tense of this verb which, in most cases, has the same root as all the other forms of the verb: hablar-hablaré (‘talk’-‘will talk’). In English, while the future construction generally requires use of the auxiliary ‘will’ before the infinitive (without to) of the verb, sequences of two modal verbs are ungrammatical in standard English, so alternative constructions

must be used in some cases. In this example, the future tense for ‘can’ is not formed by the simple addition of ‘will’; we need to use the semi-auxiliary ‘be able to’, which allows another preceding auxiliary (‘will be able to’), while ‘can’ does not (*‘will can’). Transferring the Spanish pattern of simply using the ‘future morpheme’ to English is likely to create errors like:

‘Go to’ construction

The next example shows a direct calque of the Spanish expression *ir a + verb*. *Ir a* is used to talk about an action that the subject is going to do in the near future, almost always in cases that involve physical movement (*Vamos a ir al cine*, meaning ‘We are going to go to the cinema’). It is worth taking into account that when the word *ir* is conjugated, it can describe an action taking place in the immediate future which does not necessarily imply physical displacement (*No lo sé. Voy a buscarlo en internet*, meaning ‘I don’t know. I’m going to look it up online’). Depending on the context, this expression may have several equivalents in English, such as ‘be going to’, a present continuous or the simple future with ‘will’. Since the Spanish construction is used in several situations that do not explicitly correspond to the English ones, failing to identify the actual tense and aspect of the intended sentence may cause errors. In this example, *ir a ver* was translated word by word as ‘go to watch’. Here ‘we can go to watch’ could be *podemos ir a ver* (‘we can go [to the cinema] to watch...’), where ‘go to’ would indeed refer to physical displacement. Since English does not usually use ‘go to +infinitive’ in this sense, a more appropriate translation would have been simply ‘watch’.

CONCLUSION

All in all, it is clear that the native language does influence L2 production at least to a certain extent. The reality is that language learners inevitably turn to their L1 (and gradually separate from it as they progress in L2 learning) to produce content in the target language. Teaching them how to successfully move from the native language to the target language would be beneficial for them to find real communicative equivalents. As we mentioned before, in foreign language lessons, it is often

discouraged to translate from the native language, but interference is a reality, and language teaching can take advantage of that. In this final section we would like to suggest some paths that English teaching could explore to better suit and facilitate the learning process:

REFERENCES

Archibald, John (1998) Second Language Phonology. Amsterdam: John Benjamins Publishing

Bachman, Lyle F. (1990) Fundamental Considerations in Language Testing. Oxford: Oxford University Press

Barbero Andrés, Javier (2012) 'La enseñanza de la lengua inglesa en el sistema educativo español: de la legislación el aula como entidad social (1970-2000)'. Cabás, 8, 72–96

Tarone, Elaine (2018) 'Inter-language'. The Encyclopedia of Applied Linguistics. Oxford: Wiley-Blackwell Publishing

The Ling Space (2015) Principles and Parameters [online] available from <<https://www.youtube.com/watch?v=GbK0ls7YVN4>> [3 May 2020]

Yang, Wenfen (2010) 'A Tentative Analysis of Errors in Language Learning and Use'. Journal of Language Teaching and Research, 1 (3), 266-268

Yavuh, Fatih (2012) 'The Attitudes of English Teachers about the Use of L1 in the Teaching of L2. Procedia – Social and Behavioral Science, 46, 4339-4344

Zulfikar, Zulfikar (2019) 'Rethinking the Use of L1 in L2 Classroom'. Englisia Journal, 6, 42

KREATIVLIKNING MOHIYATI VA TA'LIM JARAYONIDA TUTGAN O'RNI

Tashmatova Shalola Ravshanbekovna

Nizomiy nomidagi TDPU tayanch doktranti

shalolatashmatova1987@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, kreativlikning inson rivojlanishiga va uning shaxsiyatiga ta'siri masalalari yoritilgan bo'lib, bu masalada ko'plab olimlarning fikrlari va mulohazalari ham o'rin egallagan. Kreativlikni rivojlantirishda g'oyaviy sermahsullikning ahamiyati va kreativlikni rivojlantirish bo'yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kreativlik, ijodkorlik, turlicha fikrlash, fikrlash qobiliyatlari, g'oyaviy sermahsullik, ijodiy strategiyala, ijodiy yondoshish.

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещаются вопросы развития навыков творческого мышления учащихся, влияние творчества на развитие человека и личности, а также в этом вопросе имели место мнения и мнения многих ученых. Даны значение мыслительной продуктивности в развитии творчества и предложения по развитию творчества.

Ключевые слова: Креативность, творчество, иное мышление, навыки мышления, творческая стратегия, творческий подход.

ANNOTATION

In this article, the issues of development of students' creative thinking skills, the impact of creativity on human development and personality are highlighted, and the opinions and opinions of many scientists have taken place in this issue. The importance of ideational productivity in the development of creativity and proposals for the development of creativity are given.

Key words: Creativity, thinking differently, thinking skills, creative strategy, creative approach.

Ta'limning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida rivojlanishi va takomillashuvi innovatsiyalarning turli shakllarini tadqiq etmasdan, bugungi kunda

mutaxassisni nimaga va qanday tayyorlashga bir qator yondashuv va munosabatlarni tamoyillar asosida ko‘rib chiqmasdan amalga oshirish mumkin emas. Shu bilan birgalikda, uchinchi renesans davrida jadal rivojlanayotgan innovatsion ta‘lim tizimi, birinchi navbatda, ijodiy qobiliyatlar, ijod potentsiali, o‘z-o‘zini ijodiy rivojlantirish, ijodiy individuallik va kreativlik talablariga javob berish muammosiga katta e‘tibor qaratishi lozim.

Zamonaviy fan imkoniyatlari ijodkorlik tabiatining mavjud dalillar va savollarni to‘liq qoniqtiradigan universal tushuntirish imkoniyatiga ega emas. Hozirgacha Vatanimizda va chet ellarda to‘plangan bilimlar ijodkorlik psixologiyasi mohiyatini tushunishga yetarli emas. Jamiyat taraqqiyoti tajribasida psixologiya va pedagogikada ijodkorlik psixologiyasi sohasida izlanishlarni faollashtirish taqozo etilmoqda, chunki ijodkorlik natijalari faqatgina shaxsi tasnifga ega emas, balki ijtimoiy ahamiyatga egadir.

Psixologiyada ijod va ijodiy faoliyat muammosini o‘rganuvchi alohida yo‘nalish - ijodkorlik psixologiyasi yo‘nalishi vujudga keldi. Ijodkorlik psixologiyasining asosiy maqsadi psixologik qonuniyatlar, ijod jarayoni mexanizmi va kreativ likni o‘rganishdan iborat. Ijodkorlikka rivojlanishning asosiy mexanizmi sifatida (N.V.Kipiaki, A.M.Matyushkin, Y.A.Ponomarev, I.N.Semenov va boshqalar) qaraladi va uning o‘rganilishi M.S.Bemshteyn, V.S.Bibler, V.N.Shkin, O.K.Tixomirov, E.G. Yudin va boshqalar nomi bilan bog‘liq.

Psixologik ijodkorlikning kreativlik deb nomlanuvchi yo‘nalishi ustida g‘arb olimlari: J.Gilford, S.Liding, V.Smit, D.Xalperik va boshqalar izlanishlar olib borishgan. Chet el olimlarning kreativlik tushunchasi haqidagi izlanishlarini tahlil qilib va iimumlashtirib R.Xameni yozadi: “Kreativlik o‘zida yangicha yo‘sinda amalga oshirilgan o‘zlashtirish to‘lqinini, yangicha aloqadorliklarni aniqlash, yangicha munosabatga kirishish, yangiliklar, ongning yangicha e‘tirozlariga sabab bo‘luvchi faoliyatidir ”. Ko‘pchilik tadqiqotchilar kreativlikni belgilashda shaxsning o‘ziga xosligi va xususiyatlariga etibor qaratadilar. J.Gilfodning fikricha, kreativlik va ijodiy imkoniyat qobiliyatlar va ijodiy tafakkurga ta’sir etuvchi omillar yig‘indisi sifatida

namoyon bo'ladi. E.Torrens kreativlikni yechimlarni topishda bilimlarning yetarli bo'lmasligi muammosi, qiyinchiliklar qarshisidagi indentifikatsiya va taxminlarning shakllanishi, yechimlarning topilish jarayoni deb qaraydi.

Kreativlik - shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Kreativlik jarayonini tashkil etish va boshqarishning murakkabligi shundaki, bunda ijodiy individuallikning nafaqat ongli, balki ong osti tushunchalari paydo bo'ladi.

Pedagogika va psixologiyadagi kreativlik tabiati uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillar haqidagi yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirib quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: bu hodisa yaxlit va tuzilish jihatdan tushunish uchun yagona tushunchalar tizimi mavjud emas. Inson shaxsida kreativlik, uning darajasi, tuzilishi va o'ziga xosligi inson individualligining boshqa bir jihatini o'zlashtirish jarayonining o'ziga xosligi va shaxsiy xususiyatlari bilan uzviy bog'liq. Bu bog'liqlikni tasniflash kreativlik hodisasining kelajakda o'rganilishi kutilayotgan yangi bir yo'nalishidir. Kreativlikni intellektual kreativlik va ijtimoiy kreativlikka bo'lish mumkin. Intellektual kreativlik analiz va sintezdan iborat. Analiz va sintez qila olish qobiliyati umumiy intellektning asosidir. Ijtimoiy kreativlik o'zida kasbiy kreativlikni mujassamlashtiradi, uning ko'pgina turlari orasida pedagogik kreativlik ham mavjud. Pedagogik kreativlik kommunikativ va didaktik kreativlikdan iborat. Didaktik kreativlik o'zida intellektual boyliklarga intilish va shu bilan birga novatorlik qobiliyatida namoyon bo'ladi. Kommunikativ va didaktik kreativlik pedagogik qobiliyatning asosi hisoblanadi. Pedagogik qobiliyat ijodkorlik qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadi va o'z navbatida ichki sezishni rivojlantiradi. Pedagogik ijodkorlik qobiliyati, ichki sezish va umumiy intellekt kesishganda ijod mahsuli yaratiladi.

Olimlar pedagogik mahoratning quyidagi uch darajasini ko'rsatadilar: birinchi daraja - bu sinf bilan elementar munosabat. O'qituvchi teskari aloqani qo'llaydi, uning natijasiga ko'ra o'z harakatlarini belgilaydi. Lekin bu faoliyat metodik qo'llanmalar yoki boshqa o'qituvchi tajribasi asosida amalga oshiriladi. Ikkinchi daraja dars faoliyatini, uning rejasini tuzishdanoq optimallashtirish bosqichidir. Bunda ijodkorlik o'qituvchiga ma'lum maqsadni amalga oshirishda mazmun, metod va shakllarni to'g'ri tanlashdan iborat. Uchinchi daraja - evristik. Pedagog o'quvchilar bilan jonli muloqotning ijodiy imkoniyatlarini qo'llaydi. O'qituvchining eng yuqori darajadagi ijodkorligi uning to'liq mustaqil faoliyatida namoyon bo'ladi. U avvaldan ma'lum bo'lgan usullarni qo'llashi mumkin, ammo u ularga o'zining shaxsiy munosabatini qo'llaydi. O'qituvchi ijodiy individualligi, tarbiyalanuvchining shaxsiy o'ziga xosligi, ta'limning aniq darajasi, tarbiyalanganlik darajasi, sinfning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda zaruriyat taqozo etgan darajada ish olib boradi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, pedagog faolligining borgan sari yuqoriroq darajadagi faoliyatga ko'tarilib borishi kelajakda innovatsion ta'lim strategiyasini tashkil qilishni belgilaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Ishmuhamedov R, M.Yuldashev. "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar."* (ta'lim tizimi xodimlari, metodistlar, o'qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o'quv qo'llanma) Toshkent-2017, 366 bet.
2. *R.Mavlonova, N.Raxmankulova, N.Vohidova. "Pedagogika nazariyasi va tarixi."* Darslik. -T.: Fan va texnologiyalar. 2010.
3. *Beghetto, R. and J. Kaufman (2014), «Classroom contexts for creativity», High Ability Studies, Vol. 25/1, pp. 53-69, <http://dx.doi.org/10.1080/13598139.2014.905247>.*
4. *Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.*

GAZ QUVURLARINI LOYHALASHTIRISHDA QUVURLARNI O‘TKAZISH OPERATSIYALARINING INNOVATSION MODELINI QO‘LLASH

Sattarkulov Lazizbek Abror o‘g‘li

Toshkent davlat texnika universiteti 3-bosqich talabasi

Saidov Jahongir Egamberdiyevich

Toshkent davlat texnika universiteti Texnika fanlari falsafa doktori PhD

Adiljonova Gulnoza Sohibjon qizi

Toshkent davlat texnika universiteti 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada uzoq masofali gaz quvurlarini qurish uchun resurslarni taqsimlash texnikasi taqdim etilgan. Innovatsion modelni joriy etish orqali gaz quvurlarini tashishni boshqarishning ortiqcha harajatlarini cheklash ko‘zda tutilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion model tegishli omillarning noaniqligi bilan bog‘liq bo‘lgan quvur tarmog‘ini tortish jarayonini optimal boshqarishni ta‘minlaydi.

***Kalit so‘zlar:** innovatsion model, gaz quvurlari, neft sanoati, quvur tarmoqlari va logistika operatsiyalar.*

ANNOTATION

This article presents a resource allocation technique for the construction of long-distance gas pipelines. By introducing an innovative model, it is intended to limit the excess costs of managing the transportation of gas pipelines. The results show that the innovative model provides optimal control of the process of drawing a pipeline network, which is associated with the uncertainty of relevant factors.

***Keywords:** innovative model, gas pipelines, oil industry, pipeline networks and logistics operations.*

Gaz quvurini qurish loyihasida quvurlarni ishlab chiqarish jadvalini boshqarish qurilish loyihasining asosiy ko‘rsatkichi sifatida qaraladi. Bu loyihadagi barcha tadbirlarga tegishli: materiallarni sotib olish, payvandlash va ishlab chiqarish, tashish, quvurlarni ulash va boshqalar kiradi. Shu sababli, butun tarmoq samarali ishlashi uchun barcha harakatlar ta‘minot tarmog‘i boshqaruvi sifatida umumlashtirish kerak.

Quvurlarni payvand qilish faoliyati xususan quvurlarni payvandlash faoliyatining o‘tmishdoshi sifatida quvurni yig‘ish joyidan quvur tarmog‘ini tayyorlash uchun

tozalash va nishabli maydonchaga tashishdan iborat. [1] Payvandlash guruhi har safar ushbu joyga safarbar etilganda, quvurlar payvandlash uchun tayyor bo'lishi kerak. Shu bilan birga, quvurlarni payvandlashga bo'lgan talabni qondirish uchun quvurlarni tortish faoliyatiga qancha resurslarni sarflash kerakligi hisobga olinishi kerak.

An'anaga ko'ra, quvurlarni yetkazib berish talabi kunlik o'rtacha qiymatlar bilan hisoblangan quvurlarni payvandlashning talab qilinadigan tezligi bo'yicha hisoblab chiqiladi va tegishli resurslar sarmoya qilinadi. Amalda, payvandlash guruhlari tomonidan bajarilgan payvandlash bo'g'inlari soni doimiy emas, ba'zan yaxshi ob-havo kunida payvandlash tezligi yuqoriroq yoki yomon ob-havo kunida pastroq bo'ladi. Shunday qilib, agar quvurlar joyida yetkazib berilmagan bo'lsa, payvandlash guruhi uchun hech qanday ish bo'lmaydi va jamoa foyda keltirmasdan joyida kutishadi, ammo texnik xizmat haqini payvandlash uchun safarbar qilishdan oldin to'lash kerak, masalan yer sotib olish zarurati mavjud [2]. Quvurlar joyida yetkazib berildi, biroq payvandlash ishlari o'z vaqtida bajarilmadi. Demak, bu usulning boshqa tomoni bo'lishi mumkin, chunki foydani maksimal darajada oshirish uchun haqiqiy talabni to'g'rilab bo'lmaydi.

Quvurlarni ulash va payvandlash o'rtasida ta'minot zanjiri aloqasi mavjudligi kuzatiladi, shuning uchun xarajatlarni minimallashtirish va maksimal darajaga ko'tarish uchun joylarda quvurlarni yetkazib berishga bo'lgan talabni hisoblash uchun innovatsion model inventarizatsiya nazariyasi ko'rib chiqiladi. Natijada, an'anaviy usul bilan solishtirganda usulning afzalliklari va undan tashqarida quyidagi qismlarda quvur tarmog'i faoliyati uchun quvur ta'minoti talabini hisoblash uchun yangi innovatsion model qo'llaniladi.

Innovatsion modelning xususiyatlariga ko'ra quyidagilarga amal qilish kerak:

- Quvurlar ta'minoti alohida tahlil qilinishi mumkin;
- Talablar bir vaqtning o'zida bir marta amalga oshiriladi;
- Zaxira holati yo'q;
- To'ldirish muddati belgilangan va ma'lum;
- To'ldirish bir marta buyurtma qilinadi;
- Talab uzluksiz ehtimollik taqsimoti bilan modellanadi;


Quvur tarmog'i faoliyati davomida quvur ta'minoti xususiyatlariga ko'ra, quvur ta'minotiga bo'lgan talab alohida va kundalik ravishda tahlil qilinishi mumkin. Uzluksiz qurilish uchun zaxiralar tugamaydi va buyurtma, yetkazib berish har kuni amalga oshiriladi [3]. Talabning taqsimlanishi keyingi qismda, shuningdek jarima va ushlab turish qiymatida tekshiriladi. Agar talabni uzluksiz ehtimollik taqsimoti bilan modellashtirish mumkin bo'lsa va jarima va ushlab turish qiymati doimiy bo'lsa, tahlil qilish uchun yangiliklarni yetkazib beruvchi modeli qo'llanilishi mumkin.

1-jadval. Quvurlarni payvandlash tezligining taxminiy ma'lumoti

Kun	Miqdori	Kun	Miqdori	Kun	Miqdori	Kun	Miqdori
1	16	11	26	21	22	112	29
2	16	12	24	30	17	113	26
3	14	13	24	40	13	114	29
4	6	14	21	50	17	115	23
5	16	15	25	60	18	116	31
6	18	16	18	70	11	120	28
7	18	17	25	80	13	121	29
8	18	18	21	90	11	122	30
9	24	19	22	100	20	123	26
10	23	20	22	111	24	124	23

Modelga mos kelishi mumkin bo'lgan quvur tarmog'i faoliyati parametrlarini aniqlash uchun har bir parametr bo'yicha hisoblash uchun ma'lumotlarni to'plash uchun tajriba kuzatuv o'tkazildi, payvandlash guruhi tomonidan davom etgan payvandlash tezligi uzluksiz 124 kun davomida to'plangan (1-jadval).

1-jadvaldan har bir ish kunida payvandlangan quvurlar miqdori yig'ildi. Bu ketma-ket 124 kunlik operatsiya hisoblanadi. Buni aniqlash uchun ma'lumotlarni innovatsion texnika bilan tekshirishimiz kerak. Innovatsion texnikaning natijasi 1-rasmda ko'rsatilgan (1-rasm). Keyin normallikni tekshirish uchun maxsus testdan foydalaniladi. Natijada, ma'lumotlar oddiy taqsimot sifatida taqsimlandi. Bundan tashqari, o'rtacha qiymat va uning standart og'ishi hisobga olinadi.



1-rasm. Oddiy miqdorning ehtimollik grafigi

Keyinchalik, ushbu tadqiqot uchun ushlab turish qiymati va jarima qiymati quyidagicha tavsiflangan:

$$\text{Xizmat narxi} = \text{Ta'mirlash xarajatlari} + \text{Yo'qotish narxi}$$

Texnik xizmat ko'rsatish narxiga xavfsizlik to'siqlari narxi, ogohlantiruvchi belgilar narxi, xavfsizlik narxi, yerga ulash narxi, tekshirish narxi, jamoatchilik bilan aloqalar narxi va boshqalar kiradi. Xavf xarajatlari quvurlar o'g'irlanganda, yondirilganda yoki shikastlanganda paydo bo'ladi, ta'mir talab quvurlar ham sabab bo'lishi mumkin.

Agar uchastkaga yetkazib beriladigan quvurni joyida payvandlab bo'lmasa, quvur omborxonaga qaytarilishi kerak, chunki xavfsizlik talablarini hisobga olgan holda quvurni uchastkaga joylashtirishga ruxsat berilmaydi [4]. Shunday qilib, tahlil yangiliklarni yetkazib beruvchi model sifatida amalga oshirilishi mumkin:

$S = F^{-1} \times (\rho/\rho+h)$ (1) formulaga ko'ra, bu yerda F-quvur ta'minoti talabi, h-xizmat ko'rsatish narxi, ρ -jarima narxi. Shunday qilib, quvur ta'minotining optimal miqdori kuniga 25 dona.

Hisob-kitoblarga ko'ra, innovatsion model tomonidan hisoblangan talab natijasi faqat o'rtacha talabga asoslangan an'anaviy usulga qaraganda yuqori va an'anaviy usul bo'yicha kutilayotgan xarajat yuqori bo'ladi. Quvur tarmog'i faoliyatidagi quvur ta'minotining boshqa tartibi tufayli biz ko'proq foyda yo'qotishimiz mumkinligini ko'rsatadi. Biroq, ushlab turish qiymati har kuni doimiy deb qabul qilinadi va amalda bu yanada murakkabroq bo'ladi. Agar payvandlash jamoasi tomonidan ushlana olmasa, ushlab turish narxi oshadi, keyin talab yuqoridagi tahlil natijasidan past bo'ladi. Shunday qilib, natija quvur tarmog'i faoliyatida quvur ta'minoti uchun maksimal talabi bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda xarajatlarni nazorat qilish sohadagi muhim funktsiyalardan biridir, ayniqsa yirik qurilish loyihalarida. Ushbu tadqiqot gaz quvurini qurish loyihasining ishlashini o'rganib chiqdi. Quvurlarni tortish faoliyati o'rtasidagi kelishuv tahlil qilindi. Keyinchalik, biz optimal miqdorni aniqlash uchun innovatsion modeldan foydalanish mumkin. Biz yangi usul kuniga pul tejash mumkinligini aniqladik, u ma'lum miqdorni tashkil etdi. Keyinchalik o'rganish uchun tegishli jamoa ushbu kontseptsiyaga asoslanib, tasniflash va boshqa tadbirlarni o'rnatishi mumkin. Bundan tashqari, jamoa boshqa inventarizatsiya siyosatlarini, masalan asosiy fond siyosati,

iqtisodiy buyurtma miqdori siyosati va boshqalarni qurilish loyihasidagi faoliyatga qo‘llashdan manfaatdor bo‘lishi muymkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кеннет Д. Эрроу, Теодор Харрис и Джейкоб Маршак. 1951. Оптимальная политика инвентаризации. *Эконометрика: журнал Эконометрического общества*. 19, 3 (июль 1951 г.), 250-272.

<https://doi.org/10.2307/1906813>.

2. Фрэнсис Ю. Эджворт. 1888. Математическая теория банковского дела. *Журнал Королевского статистического общества*. 51, (март 1888 г.), 113–127. <https://www.jstor.org/stable/2979084>.

3. Филипп М. Морс, Джордж Э. Кимбалл и Сол И. Гасс. 2017. Методы исследования операций. Андезит Пресс.

4. Айдин Гокер и Эван Л., Портеус. 2008. Совместные решения по инвентаризации и ценообразованию для ассортимента. *Operations Research*, 56, 5 (октябрь 2008 г.), 1247-1255.

<https://doi.org/10.1287/opre.1080.0562>.

SHE'RDA HIS-TUYG'UNING TELEPORTATSION XUSUSIYATIGA DOIR

Omonturdiyev Alibek Anvari

TerDU magistranti

alibekanvari@mail.ru

ANNOTATSIYA

She'r his-tuyg'uni teleportatsiya qilish xususiyatiga ko'ra o'zbek adabiyotshunosligida hali o'rganilmagan. Buning elementlari jahon adabiyotshunosligida ham deyarli kam uchraydi. Eng muhimi, "she'riyatda his-tuyg'uni teleportatsiya qilish" iborasi mutlaqo muallifga xos bo'lib, bu rakursdan badiiy matnni tadqiq qilish zamonaviy adabiyotshunoslik fani uchun ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: teleportatsiya, Charlz Fort, his-tuyg'uning teleportatsion xususiyati, "A" va "B" nuqta, badiiy matn, Usmon Azim, "tuyg'u ko'chirish".

ABOUT THE TELEPORTATION FEATURE OF FEELINGS IN THE POEM

ABSTRACT

The poem has not yet been studied in Uzbek literary studies from the point of view of teleportation of feelings. These elements are almost rare in world literature. Most importantly, the phrase "teleportation of feeling in the poem" is completely unique to the author of the article, and the study of the literary text from this point of view is important for modern science.

Keywords: teleportation, Charles Fort, Teleportation property of emotion, point "A" and "B", fiction, Usman Azim, "emotion transfer".

KIRISH

She'r tahlil qilinishiga ko'ra san'atning barcha turlaridan-da murakkabroq, badiiy ijodning so'z bilan tushuntirib bo'lmay, faqat va faqat his etish orqaligina anglash mumkin bo'lgan hodisasidir. Shu xususiyat sababidanmi, she'riyat hamon yashab kelayotir.

Adabiyot nazariy jihatdan o'rganilib boshlangan davrlardan to XXI asrga qadar jahonning ko'plab afkor ahli: mutafakkirlari, shoir-yozuvchilari, adabiyotshunos munaqqid olimlari ayrim nazariy instrumentlarini tatbiq etgan bo'lsalar-da, mohiyatan

lahzaga aylangan mangulik, ta'bir joiz bo'lsa, matn formatidagi his-tuyg'u – she'rni tushuntirishning yakdil va barqaror usullarini fanga olib kirisha olmadi.

She'rni – tuyg'u – tasvir – harakat – metafora – ohang – badiiy niyat va g'oya o'laroq jo'n anglasak-da, uning tadrijiy ta'sirchanlik kuchini tasavvurimizda hosil bo'lishi/bo'lmasligi bilan farqlaymiz. Bu jarayonga "his-tuyg'uning teleportatsion" (ushbu termin bizniki – A.O.) xususiyati orqali tekshirish ham, nazarimizda, ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLIGIYA

O'zi teleportasiya nima? Ushbu istiloh qanday vujudga kelgan? Dastavval, shu haqida biroz bayon etsak. Teleportatsiya (yunoncha tele – "uzoqda" va lotincha portare "tashuvchi") ob'yekt (harakat) koordinatalarining faraziy o'zgarishi bo'lib, bunda ob'yekt trayektoriyasini vaqtning uzluksiz funksiyasi orqali matematik tarzda tasvirlab bo'lmaydi. Bu atama 1931-yilda amerikalik yozuvchi Charlz Fort tomonidan g'alati g'oyib bo'lish va ko'rinishlarni, uning fikricha, umumiy narsaga ega bo'lgan paranormal hodisalarni tasvirlash uchun kiritilgan. Ushbu istiloh aksar hollarda bizga fantastik gipotezalar mahsuli kabi tasavvur uyg'otsa-da, zamonaviy fan uning haqiqatga yaqin hodisa ekanligini, teleportatsiya – vertual olam sifatida, allaqachon mavjudligini, qolaversa, o'z ma'nosida ham olamshumul kashfiyotlar arafasida turgani haqida xabar bermoqda.

Garchi jismning "A" nuqtadan xayol tezligida "safariy" bo'lib "B" nuqtaga yetib olishi (deylik, u qit'adan bu qit'aga) hozircha tasdig'ini topmagan bo'lsa-da, baayni termining badiiy adabiyotda, xususan, shoirning ("A") his-tuyg'usini she'r orqali (she'r o'qilayotgan, eshitilayotgan pallada!) she'rxon ("B") tasavvurida hosil bo'lish hodisasini inkor etib bo'lmaydi! Bu hodisaning sodir bo'lish holati ham qator faktorlarni taqozo etadi. Avvalo, she'riy matn his-tuyg'uni teleportatsiya qilish xususiyatiga ega bo'lishi, she'r iste'dod mahsuli bo'lishi, she'riy matnda tasvir harakatga keltirilishi, o'xshatishlar favqulodda original bo'lishi, she'rning badiiy niyati adabiyotning azaliy va abadiy vazifalariga mutanosib bo'lmog'i va yana aqlbovar qilmas, tushuntirib, izohlab bo'lmas savqi tabiiy xususiyatlarga ega bo'lishi zarur, deb hisoblaymiz. Bu jarayonda zamon va makon tushunchasi u qadar ustuvor hisoblanmaydi.

NATIJALAR

She'r o'qilganda yoki tinglanda his-tuyg'uni aynan shu tarzda teleportatsiya holatiga tushiradigan ba'zi she'rlardan parchalarni misol tariqasida keltirsak.

"...Bir yulduz iltijo etdi tangriga, / Istig'for so'zida nur bo'yi anqib: / – Qanday soz – yotmoqlik yerning tagida – / Yomg'irni eshitib uxlamoq baxti! (Usmon Azim. "Kuz" kitobidan). Mazkur satrlar favqulodda auditoriya tanlaydi. Uni ma'lum ma'noda

tayyorgarliksiz, ruhiy-hissiy beqaror holda o'qib bo'lmaydi, albatta. Ammo bu satrlar orqali teleportatsiya hodisasiga uchraydigan his-tuyg'ular, dastavval kishi ko'z o'ngida ajabtoqur "salqin tun", "odamning o'zi tasavvur etgan Tangri", "qora tuproq", "bir kun kelib o'lish", "qabrda hammasidan qutulib, maroq ila rutubat aro yomg'ir yog'ishini "eshitib" yotish baxti"... kabi "kadr"larni gavdalan tiradi. Bizningcha, o'quvchi ushbu satrlarni anglash chog'ida "yulduzlarning bu orzusiga" to'satdan orzudosh bo'ladi.

Lirik qahramon – hijronga duchor bo'lgan yomg'ir tilidan aytilajak satrlarga diqqat qiling. (Mahbubaga qarata): *Manzilga yetasan. Nogoh eshikda / Meni soyabondan silkib tashlaysan.* (Usmon Azim. "Yomg'ir haqida ballada") – deb yozg'irishi yoki ayni Yomg'irning yoriga: *Goho etagingga yetdim beozor, / Goho etagingga bebaxt surindim.* (Usmon Azim. "Yomg'ir haqida ballada") – tarzida sharhi hol etishi lirik qahramon his-tuyg'ularini teleportatsiya qiladi. Shoir qalbidan o'tgan emmotsional deppinishlar o'quvchi shuurida, ko'nglida aks sado beradi. Eshikka yetib, uyga (qalbgaga) kiritmaslik uchun shilta soyabonni (Yorning – Yomgir izhoridan saqlanish vositasini) siltab tashlash – Yomg'irni – umuman, oshiq umrini, orzu-maqсадlarini, uning sevgining eng baland zirvasini zabt etolmay chirpanayotgan ko'nglini o'zidan xoli etish, oshiq sevgisini shavqatsizlarcha rad etish holatining go'zal badiiy ifodasini o'quvchi "ko'radi". Satrlarda "etak va etik", "bebaxt va beozor" so'zlari tashigan ma'nolar ham o'quvchi shuurida vizuallik kasb etmay qo'yamaydi.

MUHOKAMA

She'r yaxlit holda his-tuyg'uning teleportatsion tabiatini yaqqol aks ettiradi. Hatto ba'zida, bir yo bir necha satr ham bu funksiani bajarishi mumkin. Bu o'rinda "*Kim osmonni ketdi pichoqlab?*"; "*Maysalar, tovonim sizni sog'inar, / Tog'lar, viqoringiz qalbimda mangu*"; "*Maysa, rahmat, o'sishni eslatib turding*"; "*Senga aytadigan so'zim qolmadi, / Senga aytadigan jimliklarim – ko'p*"; "*Yulduzlarni ko'p ko'rganman hayotimda, / Dengizdagi yulduzlarni keldi quchgim*"... (Usmon Azim) kabi "o'z taqdirini o'zi hal etishga qodir bo'lgan" satrlarni misol qilish mumkin.

XULOSA

Ta'kidlash joizki, she'rni mazkur yo'sinda o'rganish o'zbek adabiyotshunosligida shu kunga qadar tatbiq etilmagan bo'lib, ushbu tajriba ilk marotaba qo'llanayotir. She'r – his-tuyg'uning teleportatsion xususiyatiga ko'ra o'rganilsa, nazarimizda, adabiyotshunoslikda "butun" she'rlarni (hatto satrlarni) saralab olish, farqlash, imkoniyati paydo bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI***Kitoblar***

1. Усмон Азим. Сайланма: Шеърлар. – Т.: Шарқ, 1995. – 432 б.
2. Усмон Азим. Куз. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат наشريёти, 2001. – 448 б.
3. Усмон Азим. Фonus. – Тошкент: Шарқ, 2010. – 160 б.
4. Усмон Азим. Юрак. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат наشريёти, 2009. – 348 б.
5. Усмон Азим. Дарс. – Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат наشريёти, 1986. – 128 б.

Vebsayt

<https://minikar.ru/uz/ezoterika/kak-nauchitsya-magii-teleportacii-teleportaciya-eto-prosto/>

AKSIOMALAR SISTEMASI VA UNI MAKTAB GEOMETRIYA KURSIDA O‘RINLI QO‘LLASH

Xushmurodova Zebiniso Uyg‘un qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika Universiteti
“Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi
(matematika)” yo‘nalishi 2-bosqich magistranti;

ANNOTATSIYA

Maktab geometriya kursida geometriya o‘qitishda aksiomalar sistemasidan o‘rinli foydalanib, o‘quvchilarga geometriyani yanada soddaroq usulda tushuntirish. Buning uchun albatta o‘quvchilar aksiomalar sistemasini haqida tushunchaga ega bo‘lishlari kerak.

Kalit so‘zlar: Aksioma, metod, ta‘rif, teorema, isbot, shakl, aksiomalar sistemasini.

Aksiomalarni o‘qitish metodikasi. Maktab geometriya kursini o‘rganishda aksiomalarni ahamiyati. Maktab darsligiga aksiomalarni kiritishning asosiy maqsadlaridan biri bu isbotlashlarni asoslash uchun bazani tashkil etishdir. Aksiomalarning muvaffaqiyatli tanlangan sistemasini butun kursni samarali va oddiy ko‘rinishini ta‘minlashga qaratilgan. Umuman aksiomalar o‘quv kursini ham an‘anaviy-sintetik, ham analitik qismlarini bayon etishga mo‘ljallangan.

Yana shuni e‘tiborga olish lozimki, aksiomalar sifatida ko‘rgazmali tasavvurdagi va hayotiy tajribalardagi ma‘lumotlar tanlanadi. Bunda o‘quvchilar uchun yangilik aksiomalarning mazmuni emas, balki ularni ifoda etadigan aniq va lo‘nda matematik til hisoblanadi. Kursning boshida aksiomalarni keltirilishi oldin ma‘lum bo‘lgan bilimlarni sistemalashtirish va ularni yangi bilimlar bilan boyitishni anglatadi. Kurs boshlanganda o‘quvchilar tomonidan butun kursni o‘rganishda zarur bo‘lgan matematik terminologiyani faol o‘zlashtirish jarayoni bo‘lib o‘tadi.

O‘quvchilarni aksiomalar bilan tanishtirish metodikasi.

Dastlab “mavjud o‘quv qo‘llanma o‘quvchilarni aksiomalar bilan tanishtirishning qanaqa metodikasiga mo‘ljallangan?” degan savolga aniqlik kiritib olamiz.

A.B.Pogorelov qo'llanmasida o'ziga xos uslubiy yondashuvdan foydalanilgan. Dastlab "aksioma", "teorema", "isbotlash" kabi so'zlar hatto ishlatilmaydi, ularning o'rniga "asosiy xossalar", "xossalar", "tushunchalar" kabi jumlar ishlatiladi. "Ta'rifni ayting" ifodasi o'rniga "qanday figura aytiladi" ifodasi ishlatiladi. "Aksioma", "teorema", "isbot" terminlari kiritiladi va birinchi paragraph oxirida ya'ni o'quvchilar isbotlashda ayrim aksiomalarni qo'llash malakasiga ega bo'lganlaridan so'ng tushuntiriladi. Natijada norasmiy ravishda aksiomalarni kiritish boshlanadi, ularni rolini tushuntirish bir muncha aniq va asoslangan bo'ladi. O'quvchilarga bu jumalarni o'qish topshirig'ini berish maqsadga muvofiqdir. Bunda aksiomalarni kiritishning quyidagi metodik sxemasidan foydalaniladi: 1)ko'rgazmali asosda aksiomani kiritish; 2) aksiomani shakllantirish; 3)aksiomani shakllantirishning mantiqiy tahlilini bajarish; 4)matematik diktant o'tkazish.

Dastlabki tushunchalarni kiritish haqida. Ayrim matematik tushunchalar mavhum ekanligini e'tiborga olish zarur (maktab geometriya kursida bunday tushunchalar ko'plab uchraydi). Bunday tushunchalar sifatida "nuqta", "to'g'ri chiziq", "nuqta to'g'ri chiziqqa tegishli", "B nuqta A va C nuqtalar orasida yotadi", "yarim tekislik", "kesma uzunligi", "burchak o'lchovi", "berilgan o'lchamdagi kesmani ajrating"lar keltiriladi. Mavhum tushunchalar xossalari aksiomalar orqali ifodalanadi. Qolgan barcha tushunchalar aniqlanadigan tushunchalardir. Bunday tushunchalarga misol sifatida: "kesma", "burchak", "yoyiq burchak", "nur burchak tomonlari orasidan o'tadi", "uchburchak", "uchburchak burchagi", "teng burchaklar", "parallel to'g'ri chiziqlar" va boshqalarni keltirish mumkin.

Quyida aksiomatik sistema va unga qo'yiladigan talablar bilan tanishamiz.

Aksiomalar sistemasiga qo'yiladigan talablar.

Geometriya asoslari matematikaning bir qismi bo'lib, unda geometriyaning asosiy tushunchalari, aksiomalari va umuman geometrik sistemaning deduktiv tarzda qurulish, shuning bilan birga aksiomalar orasidagi munosabatlar o'rganiladi. Bu g'oyalar mohiyatini tushunish va ularning yuzaga kelish sabablarini fahmlash uchun qisqacha bo'lsada, tarixga nazar tashlash zarur.

Matematikada aksiomatik (deduktiv) metodning yaratilishiga grek olimlaridan Pifagor, Aristotel, Platon, Evklid ilk qadam qo‘yganlar. Bu borada ayniqsa Evklidning (eramizdan avvalgi 340–287 y.y.) xizmati ko‘pdir. Evklid “Negizlar” (“Asoslar”) deb atalgan asarida geometriyani mantiqiy jihatdan mukammal asoslash maqsadida avval ta’riflar keltirib, keyin aksiomalar, postulotlar sistemasini qabul qildi. Shu asosda u o‘z zamonasi talablariga to‘la-to‘kis javob beradigan geometriya “binosini” qurishga erishdi.

Aksiometrik metodning mohiyatini tushunish maqsadida maktabda o‘rganiladigan geometriya kursiga murojaat qilaylik. Unda bir qancha teoremlar isbotlangan bo‘lib, isbotlangan har bir teorema o‘zidan oldin kelgan teoremlarga asoslanadi, shu yo‘sinda ish ko‘rishda isbotsiz qabul qilinishi zarur bo‘lgan ibora (jumla)lar va tushunchalarga duch kelamiz: natijada ta’rifsiz qabul qilingan obyektlar (masalan, nuqta, to‘g‘ri chiziq, tekislik, masofa tushunchalari), ularni bog‘lovchi nisbatlar (masalan, nuqtaning to‘g‘ri chiziqda yotishi, burchaklarning teng (kongruent)ligi vujudga keladi.

Asosiy obyektlar, ularni bog‘lovchi nisbatlar va tegishli aksiomalar sistemasini tanlab olish muhim masaladir. Aksiomatik metod asosida muhokama yurutishni qisqaroq qilib quyidagicha aytish mumkin:

Avvalo ta’riflanmaydigan asosiy obyektlar tanlab olinadi;

Keyin ularni o‘zaro bog‘lovchi asosiy munosabatlar – aksiomalar tanlab olinadi;

Shu aksiomalar asosida mantiq(logika) qoidalariga asoslangan holda yangi–yangi jumlar(teoremlar) isbotlanadi.

Qabul qilinadigan aksiomalar sistemasi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

Aksiomalar sistemasi zidsiz bo‘lishi kerak, ya’ni mantiq qonunlari asosida aksiomalar sistemasidan bir–birini inkor etuvchi ikkita jumla kelib chiqmaydigan bo‘lsin;

Aksiomalar sistemasi erkin bo‘lishi kerak, ya’ni aksiomalar sistemasida ishtirok etadigan har bir aksioma qolgan aksiomalarning mantiqiy xulosasi bo‘lmasligi kerak;

Aksiomalar sistemasi to‘liq bo‘lishi kerak.

Ta'rif. Ma'lum obyektlarning biror to'plami aniqlangan bo'lib, shu to'plam elementlari orasida asosiy munosabat saqlanib, unda aksiomalarning barcha shartlari bajarilsa, bu aksiomalar sistemasining modeli qurilgan deyiladi.

Aksiomalar sistemasining zidsizligi shu sistema modelining tanlab olinishi bilan ham qilinadi. Agar tekshiriladigan aksiomalar biror usul bilan modelda bajarilsa va bu model obyektlarning tabiatida zidlikning yo'qligiga ishonch hosil qilinsa, u holda bu aksiomalardan bir–birini mantiqan inkor etadigan ikkita jumla kelib chiqmasligi, ya'ni bitta fakti ham tasdiqlab, ham inkor etib bo'lmasligi ma'lum bo'ladi.

Ta'rif. Zidsiz aksiomalar sistemasidagi har bir aksioma shu sistemadagi qolgan barcha aksiomalarning mantiqiy xulosasi bo'lmasa, bunday aksiomalar sistemasi erkin sistema deb ataladi.

Bundan ko'rinadiki, aksiomalar sistemasining erkin bo'lish talabi har bir aksiomaning qolgan aksiomalarning xulosasi(natijasi) emasligini tekshirish bilan isbotlanadi. Bu masala quyidagicha hal qilinadi.

Aksiomalarning zidsiz A_1, A_2, \dots, A_n sistemasiga qarashli, masalan, A_n aksiomaning erkin ekanligini ko'rsatish uchun bu sistemadan A_n ni chiqarib tashlab, uning o'rniga $\overline{A_n}$ aksioma, ya'ni A_n ning mazmunini inlor etuvchi jumla–iborani kiritib, aksiomalarning yangi sistemasini hosil qilish va uning zidsizligini isbotlash kerak. Haqiqatdan ham, agar A_n aksioma $A_1, A_2, \dots, \overline{A_n}$ aksiomalarning natijasi bo'lib chiqadi. Bu esa avvalgi sistemasining zidligini bildiradi.

Aksiomalar sistemasidagi biror aksiomaning erkinligi, ya'ni uning mustaqil aksioma ekanligini bu sistemadagi aksiomalar sonini kamaytirish mumkin emasligidan darak beradi.

Aksiomalar sistemasining erkinligini tekshirish har bir aksiomaning erkinligi alohida tekshirilmaydi, lekin ba'zi aksiomalarga nisbatan erkinlik talabi tekshiriladi.

Aksiomalar sistemasining to'liqligining mazmuni shundan iboratki, yangi aksiomalar qo'shmasdan turib, shu nazariyaga taaluqli har bir davoning shu sistemaga tayangan holda o'rirliligini yoki inkorini aytish mumkin bo'lsin. Bu talabning amalga

oshirilishi odatda sistema uchun qurilgan ikki model orasidagi izomorfizm deb ataladigan tushunchaga asoslanadi.

Ta'rif. Aksiomalar sistemasining ikki E, E' modelining asosiy obykti (nuqta, to'g'ri chiziq, tekisliklar) orasida o'zaro bir qiymatli moslik o'rnatilgan bo'lib, bu moslikda elementlar, ikkala modelda ham bir xil nisbatda bo'lsa, ya'ni $AEE \rightarrow A'EE'$ bo'lsa, bu ikki model izomorf deyiladi.

Ta'rif. Aksiomalar sistemasiga taaluqli istalgan jumlaning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlash mumkin bo'lsa, aksiomalarning bu sistemasi to'liq(mukammal) deb ataladi.

Aksiomalarning zidsiz Σ sistemasi berilgan bo'lsin, shu sistema asosida qurilgan nazariyaning barcha jumllarini uch sinfga ajratish mumkin:

Σ va undan mantiqan kelib chiqqan natijalar yordamida isbotlash mumkin bo'lgan jumladir.

Σ va undan mantiqan kelib chiqqan natijalar yordamida inkor etish mumkin bo'lgan jumlar.

Σ va undan mantiqan kelib chiqqan natijalar yordamida isbot ham qilib bo'lmaydigan, inkor ham qilib bo'lmaydigan jumlar.

Demak, Σ ning biror modeli qurilgan bo'lsa, I sinfga kiruvchi barcha jumlar shu modelda o'rinli bo'ladi. II sinfga kiruvchi barcha jumlar shu modelda o'rinli bo'lmaydi, nihoyat, III sinfga kiruvchi jumlar shu modelda o'rinli bo'ladi, Σ ning boshqa shunday modeli mavjud bo'lishi mumkinki, unda bu jumlar o'rinli bo'lmaydi. Bundan ko'rinadiki, Σ ning istalgan ikki modeli o'zaro izomorf bo'lsa, aksiomalarning bunday sistemasi to'liq bo'ladi. Buning ma'nosi shundan iboratki, aksiomalarning to'liq sistemasi uchun turli modellar faqat o'zining asosiy obyekt (element)larga beriladigan konkret mazmuni bilan farq qiladi, mantiqiy jihatdan ular bir xildir.

Demak, aksiomalarning biror sistemasining to'liqligini isbotlash uchun uning kamida ikkita modelini olib, ularning o'zaro izomorfligini ko'rsatish kifoya.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dadajonov N.D, Yunusmetov R, Abdullayev T. *Geometruxya II qism* . T.: "O'qituvchi", 1988 yil, 176 b.
2. Dadajonov N.D, Yunusmetov R, Abdullayev T. *Geometruxya II qism* . T.: "O'qituvchi", 1988 yil, 176 b.
3. Kutuzov B.V. *Lobachevskiy geometriyasi va geometriya asoslari elementlari*. T.: O'z.Dav o'quv-ped.mashriyoti, 1960, 148 b.

JADIDCHILIK HARAKATINING YO‘LBOSHCHILARI

Dinora Eshboyeva,

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi
dinoraeshboyeva23@gmail.com

ANNOTATSIYA

XIX asr oxiri XX asr boshlarida turk xalqlari orasida millatni ma’rifatli qilish, mamlakatni mustaqil taraqqiyot yo‘liga olib chiqish va mustamlakachilikdan xalqni ma’rifatli qilish orqali qutulish uchun harakat boshlandi. Bunday harakatlar tarixga “Jadidchilik” nomi bilan kirdi. Bizning o‘lkamizda o‘sha davrda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi jadidchilik harakatining yo‘lboshchilari tarix sahnasiga chiqdilar. Maqolada jadidchilik harakati yo‘lboshchilarining millar va mamlakat taraqqiyoti uchun olib borgan kurashlari aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, jadid maktablari, ilm-fan, kutubxona, maqola, teatr, asar.

LEADERS OF THE JADIDISM

ABSTRACT

At the end of the 19 th century and the beginning of the 20 th century, a movement began among the Turkish people to enlighten the nation, to lead the country to the path of independent development, and to get rid of colonialism by enlightening the people. Such actions went down in history under the name "Jadidism". At that time in our country, the leaders of the Jadidism, such as Mahmudhoja Behbudi, Munavvargari Abdurashidkhanov, Abdulla Avloni, appeared on the stage of history. The article discusses the struggle of the leaders of the Jadidism for the development of the nation and the country.

Key words: Mahmudhoja Behbudi, Abdulla Avloni, modern schools, science, library, article, theater, work.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bizning o‘lkamizda yoshlarni ilimli qilib, xalqning savodini oshirish va bu orqali mustamlakachilikka qarshi kurashib, davlatni ozod va rivojlangan davlatlar qatoriga ko‘tarish uchun kurash boshlandi. Bu kurash tarix sahifalariga “Jadidchilik” nomi bilan muhrlandi. Mahmudxo‘ja Behbudiy

jadidchilarning yo‘lboshchilaridan biri bo‘lib, 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida dunyoga keladi. Bolaligida otasidan yetim qolgan yosh Mahmudxo‘ja tog‘alari qo‘lida tarbiya oladi. Ulg‘ayib qozilik va muftiylik sohalarida faoliyat olib boradi. Uning jadidchilik faoliyati Ismoil G‘aspirali nomi bilan bog‘liq. 1893-yili Ismoil G‘aspirali Samarqand, Buxoro va Toshkent shaharlarida bo‘lib, ushbu shaharlarda yangi usul maktablari ochish g‘oyasini ilgari suradi. Shundan so‘ng ko‘plab shaharlarga sayohat qilib, u yerdagi rivojlanish va ilm-fanni ko‘radi. So‘ngra vatanga qaytib yangi usul maktablari ochishning tashabbuskorlaridan bo‘ladi. Ushbu maktablar uchun “Tarixi islom” (1909), “Risolai asbobi savod” (“Savod chiqarish kitobi”, 1904), “Kitobat ulatfol” (“Bolalar xati”, 1908), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”, 1905), “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”, 1906), “Amaliyoti islom” (1908) kabi asarlarni chop ettiradi. Shuningdek, hozirgacha unga tegishli 300 dan ortiq maqolalar ham topildi. Bu ilmiy meros yoshlarning ilmi bo‘lishi va mamlakatning taraqqiyoti uchun edi.

XX asr boshlarida “Qiroatxonai Behbudiya” nomli kutubxonani ochiladi. Ushbu kutubxonadan o‘sha davrda ko‘plab insonlar bahramand bo‘lishadi. Vadud Mahmud o‘z maqolasida: “Behbudiy boy kutubxonaning egasi edi. 1000 jildlik kitob fondiga ega bo‘lgan bu mutolaaxona barcha uchun doimo ochiq edi. O‘sha vaqtlarda bu kitoblarning har biri oltin bahosida hisoblanardi. Behbudiy bu joyning binosi va boshqa xarajatlarini o‘z cho‘ntagidan to‘lar edi”, deb yozadi. Behbudiyning jadidchilik faoliyati o‘sha davr uchun muhim ahamiyat kasb etadi. U xalqning ilmi bo‘lishi va davalarning taraqqiy etishi uchun qo‘lidan kelgan barcha ishlarni qiladi. O‘zbek adabiyotida dastlabki drama – “Padarkush” ham Mahmudxo‘ja Behbudiyning qalamiga mansub.

Abdulla Avloniyning g‘oyalari ham yoshlar va davlat kelajagi uchun muhim ahamiyatga egadir. 1878-yili Toshkentda tavallud topgan Abdulla yoshlik chog‘idanoq ilmga muhabbatli bo‘lib ulg‘aydi. Maktab va madrasada ta‘lim olgan bo‘lishiga qaramay, ko‘p bilimga o‘zi mustaqil o‘qish orqali erishgan edi. Turkistonning ziyolilari qatoridan joy egallagan Abdulla Avloniy Vatanni ozod va farovon davlatga aylantirish, yoshlarni ilm olishiga ko‘maklashish va ularni ilmga bo‘lgan muhabbatlarini oshirish uchun ko‘plab sa’y harakatlarni amal oshirdi. Xususan, 1907-yilda o‘z uyida “Shuhrat” nomli gazeta nashr qildi. Yoshlarni ilm olishiga alohida e’tibor qaratgan holda o‘z mahallasidan usulu jadid maktabini ochdi. Ushbu maktab uchun “Adabiyot yoxud milliy she’rlar”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni”, “Turkiy guliston yoxud axloq” kabi darslik va o‘qish kitoblari nashr ettirdi. shuningdek, ma’rifatchilik harakatining faoliyatiga moddiy yordam berish uchun xayriya tashkilotini tashkil etdi. “Nashriyot” shirkati tuzib, Xadrada “Maktab kutubxonasi” kitob do‘konini ochdi. Bu harakatlar yoshlarni ilm olishi, xalqni

ma'rifatli bo'lishi uchun qaratilgan edi. Abdulla Avloniy o'zining "Turon" deb ataluvchi teatr jamoasini tuzib, turkiston shaharlari bo'ylab insonlarni sahna ko'rinishlari orqali dunyoqarashini kengaytirish uchun harakat qildi. Ushbu teatrdan Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" asari ham sahnalashtirildi.

Jadidchilik harakatining yo'l boshchilari doimo xalqni ma'rifatli qilish va yoshlarni ilmiy qilish uchun harakat qildilar. Ular jaholatga qarshi ma'rifat orqali kurashish yo'lini tanladilar va vatan mustaqilligi uchun hamshu yo'ldan yurdilar. Ular bugungi kunda tinch va farovon hayotda yashashimiz uchun bor kuch va imkoniyatlarini ishga soldi. Albatta, mustaqillikka erishganimizdan so'ng ularning nomlariga hurmat ko'rsatilmoqda. Ularni xotirasini abadiylashtirish uchun davlatimiz tomonidan ularning asarlari nashr ettirilmoqda, ko'cha va maktablarga ularning nomi berilmoqda. Hayotlari va faoliyati chuqur tadqiq qilinib, ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Begali Qosimov. Mahmudxo'ja behbudiy hayoti va faoliyati. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2015 yil 3-son.*
2. *M.Xayrullayev. Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomlar, adiblar). – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr, 2001.*
3. *Hoji Muin. Buyuk ustozimiz Behbudiy afandi. Mehnatkashlar tovushi gazetasi, 1920.*
4. *R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, O'Ubaydullayev. Vatan tarixi 2 – T.: "Sharq", 2010.*
5. *Naim Karimov. Mahmudxo'ja Behbudiy – Toshkent. 2010.*
6. *https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Avloniy*

IMKONIYATI CHEKLANGAN FUTBOLCHILARNI MUSOBAQAGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH

Arzikulov Dilshod Ne'matovich
Psixologiya fanlari doktori, dotsent

Zayniyev Miraziz Anvar o'gli
O'zbekiston Milliy universiteti magistri

ANOTATSIYA

Hozirda millionlar o'yini nomidan milliardlar o'yini nomiga o'zgargan futbol sport turini imkoniyati cheklangan shaxslar orasida ommalashib borayotgani va bu sport turiga nogironligi bor shaxslardagi ishtiyoqning ko'pligini inobatga olgan holda ularga to'g'ri yonalish berish va samarali natijalarni ta'minlash yurt ravnaqi uchun qo'yiladigan asosiy qadamlardan biridir. Har bir shaxsning jamiyatda teng huquqli ekanligini hisobga olgan holda, imkoniyati cheklangan futbolchilarning ayniqsa psixologik holatiga chuqur e'tibor berish natijasida ularni o'ziga bo'lgan ishonchini yanada orttirish maqsad qilib qo'yiladi.

